


ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
СОЎЛИЉНИ САЉЛАШ ВАЗИРЛИГИ

ОЛИЙ ВА ЊРТА ТИББИЙ ТАЉЛИМ БЊЙИЧА
ЊЉУВ-УСЛУБ ИДОРАСИ

САМАРЉАНД ДАВЛАТ ТИББИЉТ ИНСТИТУТИ



ОЛТИН МЕРОС

Тиббиёт институти талабалари учун ъљув ъљлланма

САМАРЉАНД – 2004

Tuzuvchi:
falsafa va huquqshunoslik kafedrasi dotsenti
YULDASHEVA DILOROM
YULDASHEVNA

Taqrizchi:
falsafa fanlari doktori,
professor Soliyeva F.S.

SO`Z BOSHI

O`zbekistonning davlat mustaqilligi ma'naviy hayotimizda katta burilish bo`ldi. Zero bu mustaqil insoniyat tarixiy taraqqiyotning ilk bosqichlaridan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy rivojlanishning xozirgi bosqichlariga yetib kelgan xalqimiz taqdiriga yangi istiqbollar ochib berdi. Bu - anglangan zarurat ekan, shu bilan birga o`tmishda moddiy va ma'naviy madaniyat bunyod etgan ajdodlarimiz yozib qoldirgan ma'naviy qadriyatlarni qayta tiklash, ulardan imkon qadar foydalanish- shu kungi dolzarb vazifamiz ekanligini ham unutmasligimiz kerak. Chunki uzoq asrlar davomida bebaho so`z durdonalarini, aql xazinalarini yaratib sayqal berganlar ma'naviy salohiyatimiz peshvolari hisoblanib kelgan. Shu bois, O`zbekiston Prezidenti I.A. Karimov ham har bir asarlarida masalalarga alohida urg`u berib o`tadilar. "Asrlar mobaynida - deydi prezidentimiz, -xalqimizning yuksak madaniyat, ma'naviyat, adolatparvarlik kabi ezgu fazilatlar Sharq falsafasi va islom dini ta'limoti bilan uzviy ravishda rivojlandi va o`z navbatida bu falsafiy-axloqiy ta'limotlar ham xalqimiz dahosidan bahra olib, boyib bordi".

Buyuk turonimiz qadimgi tarixiga nazar tashlasak, uning azaldan ilm-fan va madaniyatning qadimgi o`zagi ekanligini ko`ramiz. Bu o`lkada tug`ilib ijod qilgan yetuk mutafakkilarimiz jahon ilm-fani va madaniyatini o`z kashfiyotlari va o`lmas ilmiy asarlari bilan boyitib, uning taraqqiyotiga juda katta hissa qo`shdilar.

Mazkur risola ushbu masalalarga qaratilib, uning muallifi -SamTI falsafa kafedrasining dotsenti D. Yuldasheva juda ajoyib o`quv materialini to`plabdi. Undan talabalar falsafa, madaniyat va ma'rifat asoslari, madaniyatshunoslik fanlarini o`zlashtirish jarayonida qo`llasa foydadan xoli bo`lmas edi.

**Falsafa fanlari doktori
Prof. Soliyeva F. S.**

Mustaqillikka erishgan respublikamiz milliy madaniyatining tezkorlik bilan rivojlanishi tabiiy ravishda uning asosiy manbai bo'lmish madaniy merosimizni keng va chuqur hamda ilmiy asosda izchil o'rganishimizni taqozo etadi. Ma'lumki, uzoq o'tmishga ega bo'lgan O'rta Osiyo xalqlari tarixi o'z boshidan turli voqealarni, ko'tarilish va susayish davrlarini kechirgan. Bu davrlar tarixda shubxasiz ma'lum iz qoldirgan.

Xususan, madaniyatimiz taraqqiyotida IX-XII asrlar katta rol uynaydi. Bu davr O'rta Osiyo xalqlarini dunyo madaniyatida mashhur qildi. Chunki O'rta Osiyo xalqlarining bu davrda qo'lga kiritgan madaniy yutuqlari, ilm-fan sohasidagi yangiliklari dunyo madaniyati, ilm-fan rivojining ajralmas xalqasini tashkil etadi.

Uyg'onish davri madaniyati va O'rta Osiyo

XV-XVII asrlar jahon tarixida Renessans yoki uyg'onish davri nomi bilan mashhurdir. Bu davrda Yevropa mamlakatlarida birin-ketin madaniy yuksalish ko'zga tashlanadi. Bu madaniy yuksalish, birinchi navbatda, ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar bilan, jamiyat hayotida shaharning, shahar madaniyatining, xunarmandchilik ishlab-chiqarishning rivoj topishi bilan o'zviy bog'liq edi. Renessans madaniyati birinchi bo'lib Italiyada boshlandi.

Ma'lumki, Italiya usha davrda O'rta dengizda, temir yo'l va havo yo'llari bo'lmagan bir davrda, suv yo'li orqali savdo sotiqni rivojlantirish, boshqa mamlakatlar bilan turli iqtisodiy-madaniy aloqalarni avj oldirishda markaziy o'rinlardan birini egallar edi.

Yaqin va O'rta Sharqda islom dinining tarqalishi. Yaqin Sharqda arab xalifaligining shaqllanishi va rivoji bilan uzviy bog'liqdir.

Bu xalifalik islom bayrog'i ostida asta-sekin Arabiston chegarasidan chiqib, O'rta Sharq tomon yurish boshlab, u yerdagi mamlakatlarni bosib ola boshladi. Bu jarayon islomni tarqatish bilan uzviy bog'liq holda olib borildi. VIII asr oxiri-IX asrning o'rtalariga kelib imperiyaga aylandi. Xususan xaliflar Mansur, Xorun ar-Rashid, Ma'mun davrlarida xalifalikning O'rta shaharlari, xususan Bog'dod iqtisodiy va madaniy jihatdan eng rivoj topgan shaharlardan biriga aylandi. Madaniyat, ilm-fan taraqqiy etadi. Bu yerda turli ilmiy, diniy muzokaralar avj oldi, turli mamlakatlardan kelgan ilm vakillari tomonidan keng ilmiy muhokamalar uyushtiriladigan bo'ldi, ilmgohlar vujudga keldi, kitob ko'chirish, turli tillardan arab tiliga ilmiy kitoblar ugirish avj oldi, maxsus tarjimonlar maktabi vujudga keldi, asar yozishga qiziqish kuchaydi. Bu jihatdan, ayniqsa, Xorun ar-Rashid va Ma'mun davri muhim ahamiyat kasb etadi.

Bu davrda birinchi akademiya- "Donolik uyi" tashkil topdi va bu yerda turli ilmlarning rivoji uchun keng imkoniyatlar yaratildi, arab xalifasi Ma'mun uning rivojiga maxsus mablag' ajratib turdi.

Akademiya-"Donolik uyi" da xalifalikning turli o'lkalaridan kelgan arab, yahudiy, fors, turk, xind, yunon olimlari birgalikda ish olib bordilar. Uning faoliyatida O'rta Osiyodan borgan olimlar ham muhim rol uynaydi.

Bu davr madaniyati adabiyotlarda Yaqin Sharqda uyg'onish davri madaniyati sifatida talkin etiladi. Haqiqatda ham bu davrdagi Yaqin Sharqdagi arab tilidagi madaniyat o'z mazmuni, yo'nalishi, yutuqlari bilan uyg'onish davri madaniy yuksalishini o'zida ifoda etdi. Uyg'onish davri madaniyati boshqa o'lkalardagi so'nggi madaniy yuksalishga katta ta'sir ko'rsatdi.

O'rta Osiyoda uyg'onish davri. Ma'lumki, VIII asrlarda O'rta Osiyo Yaqin Sharqda yangi vujudga kelgan arab davlati-xalifalik tomonidan istilo etildi. Keskin kurashlar, qarshiliklarga qaramay yerli xalq bosqinchilarga qaram bo'lib qoldi. Buyuk olim Beruniy va tarixshunos Narshaxiy tasviricha bosqinchilar yerli xalqlarga ham moddiy, ham ma'naviy jihatdan katta zarar keltirdi - yerli xoqimiyat tugatildi, shaharlar, qadimgi madaniyat yodgorliklari, mavjud yozuvlar yo'q qilindi, kitoblar yondirib yuborildi, arxitektura, san'at namunalari barbod bo'ldi.

Ilm-ma'naviyat fidoyilari qurbon etildi va xokazo, xalq xalifalikka, yangi dinga qaram qilindi. Ma'naviy norozilik kuchaya bordi, xalq mustaqilni tiklash uchun kurashga qo'zg'aldi. VIII-IX asrlarda Abu Muslim, Sharik ibn Shayx, Sumbatmag, Mukanna boshchiligida xalq qo'zg'olonlari bo'lib o'tdi. Ular bosqinchilarga qarshi xurlik, ozodlik uchun kurashdilar.

Xalqning mustaqillik uchun kurashi natijasida IX asrning oxirlarida O'rta Osiyoda yerli Somoniylar davlati vujudga keldi, bu –arab xalifaligiga qaramlikdan qutulish, mustaqilni qo'lga kiritish edi.

Lekin boy-feodallar, qabila boshliqlari o'rtasida ahillik, birlik, kelishuvning yo'qligi tufayli o'zaro nizo, kurashlar avj oldi, 3-4 asr davomida Somoniylardan tashqari yana Qoraxoniylar, G'aznaviylar, Xorazmshoxlar va boshqa davlatlar vujudga keldi, ular uzoq umr ko'rmay yo'q bo'lib ketdi. Lekin shu bilan birga Yaqin va O'rta Sharqda yangi shakllangan musulmon o'lkalari o'rtasida iqtisodiy-madaniy aloqalar avj oldi. Madaniyat namunalari bilan almashuv, o'zaro ma'naviy ta'sir kuchaydi.

Qadimgi xind, eron, arab, yunon madaniy boyliklari qorishib, adabiyotlarda "Musulmon madaniyati" deb nom olgan yangi madaniy qatlam vujudga keldi.

Qadimgi madaniyat an'alariga nihoyatda boy bo'lgan O'rta Osiyoda mustaqillikka erishgan xalq bu davr ichida o'z madaniyatini yuksalikka ko'tara oldi. Shaharlar, shahar madaniyatining tez rivoji hamda madaniy aloqalarining kuchayishi samarasi bo'lgan uyg'onish, Renessans shu davrda boshlandi, O'rta Osiyo ilm-fan, ma'naviyat, tarixda misli ko'rilmagan namunalarni yaratdi.

Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Beruniy, Firdavsiy, Rudakiy, Buxoriy, Axmad Yugnakiy, Maxmud Qoshgariy, Zamaxshariy kabilar shu davr madaniy yuksalishining qoyalari, chuqqilaridir. Xattoki arab xalifasi Ma'mun O'rta Osiyo olimlarini xalifalikning markaziga olib ketgani va ular Bag'dod akademiyasining ko'rki bo'lib, ilm uchun xizmat qilganliklari tarixdan ma'lum. Muhammad Xorazmiy, Axmad Farg'oni, Javxariy, ibn Mansur Marvarudiy kabi olimlar shular jumlasidandir. O'rta Osiyoning buyuk ug'lonlari nomi dunyo madaniyati saxifasida oltin satrlar bilan yozib qoldirilgan. Sotsial utopiya shu davrda shaqllandi: Forobiy asarlaridagi yetuk, yuksak jamoa va komil insonlar haqidagi fikr-xayollar shu davr maxsulotidir. O'rta Osiyoda bu davrda uch tilda: arab, fors, turkiy tillarda ijod etildi, tafakkur mevalari yozuvlarga muxrlanib Sharqning turli burchaqlariga yetib bordi. Bu davr madaniyati o'zining kuchli gumanistik ruxi, insonparvarlik nafasi, odamlarni o'zaro do'stlikka chaqirishi, aqlni e'zozlashi bilan umuminsoniy qadriyatlar yuksaligiga ko'tarila oldi.

O'rta Osiyo madaniyati tarixida uyg'onish, birinchi navbatda, qaramlikdan qutulish, mustaqil tafakkur, mustaqil ijod, mustaqil ma'naviylik - mustaqilning samarasi bo'ldi.

Mustaqillik birlik, o'zaro inoqlik va bir maqsad yo'lida kurashuv natijasida qo'lga kiritilishi hamda saqlab qolinishi mumkinligi tarixda bir necha bor isbotlangan. Mustaqillik ilm-fan, ma'rifatga tayansagina, ijtimoiy-madaniy taraqqiyotda yuksak yutuqlarga erishish mumkin. Tarixda dono shoxlar, xoqimlar ham o'z saroyiga ilmu fozillarni, ziyolilarni tuplaganlar, ularga imkon tug'dirib, kuch-g'ayratlarini mamlakat mustaqilligini mustahkamlashga yo'naltirganlar.

Mustaqillik bu- ma'naviy xudbinlik, quruq kekkayish, maqtanchoqlik emas, bu-og'ir mehnatni, xalqni farovonlik yo'lida olib borishga qaratilgan majburiyat va safarbarlikni, g'ururni nazarda tutadi.

Mustaqillik bu - boshqa o'lkalarning ham mustaqil ma'naviyatini izzat - hurmat etishni, ular bilan madaniy va boshqa alokalarni kengaytirishni, ulardan o'rganish va bor bilganini baham ko'rishni ko'zda tutadi.

Bu ayniqsa biz uchun hozirda muhimdir. Xorazmshoxlar saroyida turli o'lkalardan kelgan turkiy, eroniy, xind, xitoylik madaniyat vakillari ijod etishgan Ular uchun yo'l xar doim ochiq bo'lgan. Madaniy aloqalar, madaniyatlarning o'zaro ta'siri, umuman ma'daniy yuksalish uyg'onishning muhim omillaridandir.

Mustaqillik ijodiy aql, fikrning rivojiga qancha keng imkon yarata olsa, uning mustahkamlanishi uchun yo'l-yo'riq vositalar ham shuncha ko'p va rang-barang bo'lib vujudga kelishini o'tmish tarix saboqlari ko'rsatdi.

Forobiyning dono rahbar yoki rahbarlar boshchiligida fozil jamoa, komil inson, o'zaro yordam asosida yashovchi xalqlar haqidagi xayollari, Jomiy, Navoiylarning adolat xukmron bo'lgan o'lkalar, cheksiz insoniylik va yuksak axloq-odob haqidagi uylari shundan mustaqillikda tug'ilgan va avvalo mustaqillikni nazarda tutadi. Xozirda umuminsoniyat manfaati tarixning birinchi sahifasidan o'rin olayotgan bir davrda mustaqil, ilm-ma'rifatni e'zozlash, insonga muhabbat, o'zaro ahillik, ma'naviy yuksalishning qimmatidan ko'chayib bormoqda.

Mustaqillik va uyg'onish, mustaqillik va yuksalish o'zviy bog'liqdir, u bizdan aql-idrokni, bilimni, iste'dodu qobiliyatni, faollikni, kuch-g'ayratni talab etadi.

Islomning vujudga kelishi musulmon diniy aqidalarining shaqllanishi Makka shaharida to'g'ilib o'sgan Muhammad (570-632) ismli shaxs nomi bilan bog'liqdir. Muhammad 610-yildan boshlab o'z diniy targ'ibotini boshlagan, barcha arablarni qabilasi, jinsi, ijtimoiy mavqei, iqtisodiy axvolidan qat'iy nazar yagona xudoga - Olloxga sig'inish va buysunishga targ'ib qilgan va o'zini xudoning yerdagi vakili - "Payg'ambar" deb e'lon qilgan. Xudo nomidan Muhammad payg'ambar tomonidan aytilgan islomning asosiy aqidalari, axloqiy va xukukiy normalari undan so'ng yozilgan "Qur'on"ga kiritilgan va bu kitob musulmonlarning muqaddas kitobi xisoblanadi.

Qur'ondan so'nggi ikkinchi muqaddas kitob "Xadis"dir, u Muhammad paygambarning xayoti, faoliyati aytgan kursatmalari, qilgan ishlari, suxbatlari haqidagi turli ma'lumot va rivoyatlari tuplamidan iborat.

Xadis Qur'ondan so'ng qog'ozga tushirilgan. Davrlar o'tishi bilan xadislar to'planib tartibga solina boshlangan. X asrlarga kelib obruli va ishonarli deb tanilgan hadislarining 6 ta to'plami vujudga kelgan, hadislarini yig'uvchi, sharxlovchi, targ'ib etuvchilar "muhaddis" deb atalgan, hadislar to'plami esa sunna nomini olgan.

Qur'on va hadis musulmon ilohiyoti, dunyo qarashi, falsafasi, ma'naviyati, axloqi, huquqi kabilarning asosi hisoblanadi. Ularda din, ilohiyot, diniy e'tiqod masalalari bilan birga o'z davrining axloqiy va siyosiy an'analari, insonparvarligi, insonlarni qovishtiruvchi, ular o'rtasidagi ziddiyat nizolarning oldini oluvchi, adolat o'rnatishga qaratilgan axloqiy fikrlar ham keng o'rin olgan.

Islom arab xalifaligiga bo'ysundirilgan mamlakatlarning ma'naviy hayotiga katta ta'sir ko'rsatdi. U faqat diniy aqidalar sistemasi sifatidagina emas, balki dunyoqarash, ma'naviy madaniyatning muhim yo'nalishi sifatida turli sohalarini ham buysundira bordi.

Shuning uchun ham ko'p adabiyotlarda islom dini tarqalgan va xukmron dinga aylangan o'lkalar madaniyati yaxlit xolda "islom madaniyati" deb yuritiladi.

Islom kelib chiqqandan so'nggi 3-4 asr davomida u tarqalgan mamlakatlarning madaniyati ta'sirida bu yangi diniy - g'oyaviy tizim ichida turli oqimlar, ta'limot, yo'nalishlar vujudga keldi. Bu oqimlar umumiy islom dini prinsiplarini e'tirof etgan holda qator sohalar, aqidalar talqinida bir-biridan tafovut qilar edi. Ular o'rtasida vujudga kelgan ziddiyat va kurashlar musulmon mamlakatlari ma'naviy xayotini murakkablashtirib yubordi. Islomdagi demokratik oqimni ifodalovchi xorijiy xarakati vujudga keldi. U mayda guruxlarga bo'linib, so'ngroq diniy aqidalarni e'tirof etishda bir - biridan farq etuvchi shialar va sunniylar yo'nalishi shaqllandi. Mehnatkash xalqning adolat uchun kurashi jarayonida sektantlik xarakati vujudga kelib islomda u ismoilizm va karmatlik yo'nalishi shaqlida o'z ifodasini topdi.

Ismoilizm va karmatlar islomda xurfikrlilik va demokratiya uchun kurashning ko'rinishlaridan biri edi. Karmatlarning tenglik, o'zaro yordam kabi fikrlarini atoqli mutafakkir, shoirlar Rudakiy, Nosir Xisrav, al-Maariy, Abu Ali ibn Sino kabilar himoya qildilar. Shuningdek, ayrim aqidalarni, xususan, iroda erkinligi, taqdir, inson faoliyatining maqsadlari kabi masalalarni talqin etishda mutazilliyalar va mutakallimlar yo'nalishi tashkil topib ular o'rtasidagi kurash ko'p olim, mutafakkirlar dunyoqarashiga katta ta'sir ko'rsatdi.

Islom madaniyati adabiyot, san'at, fan, falsafa, axloq, urf-odat, ta'lim-tarbiya, kabilarning barchasiga o'z ta'sirini ko'rsatdi. Islom juda katta muzofotdagi xalqlar madaniy boyliklari, an'analarning o'zaro ta'sirini ham kuchaytirib yubordi.

O'rta Osiyo xalqlarining boy madaniy an'analari nafaqat bu yerdagi, balki boshqa muzofotlardagi musulmon madaniyati rivojiga ham katta ta'sir ko'rsatdi.

O'rta Osiyo xalqlarining arablarga qarshi olib borgan uzluksiz kurashi IX asrning oxirlariga kelib Xuroson va Movarounnaxrda mustaqil feodal davlatlarning shaqllanishi bilan yakunlandi. Bu katta xududda IX-XI asrlar davomida Somoniylar, G'aznaviylar, Saljukiylar, Qoraxoniylar, Xorazmshoxlar davlatlari vujudga keldi, lekin shu bilan birga ular o'rtasida o'zaro kurashlar ham avj oldi.

Shunday qilib, IX asrga kelib O'rta Osiyo va Xurosonda siyosiy-ijtimoiy vaziyat o'zgardi, u xalifalikdan ozod bo'lib mustakil rivojlanish yo'liga kirdi.

Movarounnaxr va Xurosondagi fors-tojik tilidagi badiiy adabiyot, turkiy badiiy adabiyot haqida manbalar yetarli darajada: arab tilidagi adabiyot haqida birdan-bir manba O'rta Osiyo olimi Abu Mansur ibn Abdumalik As-Saolibiyning "Yatimat-ad-daxr fi maxosin axl al-asr" ("Asr axli fozillari haqida zamona durdonasi") hamda "Tatimmat al-Yatima" nomli antologiya xrestomatiyalaridir. Bu kitobda turli musulmon o'lkalaridagi arab tilida ijod etgan yirik shoirlar haqida noyob ma'lumotlar va ular asarlaridan namunalar keltirilgan. Bu antologiya turtinchi qismi tuligicha Movarounnaxr va Xurosonda arab tilida ijod etgan shoirlarga bag'ishlangan.

As-Saolibiyning ijodi, uning merosi, shuningdek, O'rta Osiyoda arab tilidagi badiiy adabiyot haqidagi ma'lumotlar atoqli olim I.

Abdullayevning uzoq yillik ilmiy tadqiqotlari tufayli bizga ma'lum bo'ldi. Abu Mansur as-Saolibiy (961-1038), Beruniy, Ibn Sino, Firdavsiylar bilan bir davrda yashab, o'z zamonasining mashhur olimu fozillari bilan muloqotda bo'ldi. U Nishopurda to'g'ilib usgan bo'lsa-da, Buxoroda yashab ijod etdi. 50 dan ortiq filologiya, adabiyotshunoslikga oid o'z zamonasi adabiy xayoti haqida nixoyatda boy ma'lumotlarni o'z ichiga olgan asarlar yozib qoldirdi.

As-Saolibiy Xuroson va Movarounnaxrda yashab, arab tilida ijod etgan 124 ta shoir haqida qisqa ma'lumotlar va she'rlaridan namunalar keltiradi.

Bular Buxoro, Xorazm, Nasaf (Karshi), Marv, Marvarud, Shosh, Foryob, Balx, Hirot, Gazna kabi shaharlarda to'g'ilib O'rta Osiyoda ijod etgan shoirlardir.

Muhammad al-Murodiy Buxoroning yetuk shoirlaridan, Rudakiyning do'sti, shu yerda to'g'ilib o'sgan. Zamonasining yirik shoirlari bilan muloqotda bo'lgan. U ikki tilda-asosan, arab, qisman fors-tojik tillarida ijod etgan. Qasidalar, davlat idoralarida ishlovchi xodimlar haqida satiralar yozgan.

Muhammad ibn al - Musabiy somoniylar davrining shoirlaridan, kotib va davlat arbobi bo'lib ishlagan. Arab, fors-tojik tillarida qasidalar, g'azallar, satiralar yozgan. Uning faoliyati, ijodi, she'riyati haqida boshqa manbalarda birmuncha ma'lumotlar keltiriladi.

Abu-l fazl as-Sukkari al-Marvoziy Mavrning ma'lum shoirlaridan biri bo'lib, arab va fors tillarida she'rlar yozgan. Matal, maqollardan va xalq adabiyotidan keng foydalangan. Uning tomonidan qo'llangan maqollar, baytlar xozirda ham xalq o'rtasida uchray turadi. Abu Muhammad ibn Matran al-Matroniy Shosh (Toshkent) shahrida to'g'ilib usgan, o'z davrining atoqli shoirlaridan. Buxoroda obru qozongan, she'rlar, qasida va satiralar yozgan, tabiat go'zalligini kuylagan. Abu Axmad al-Kotib Buxoroda to'g'ilib usgan, saroyda kotib bo'lib xizmat qilgan. O'z davrining madaniyatli, eng o'qimishli kishilaridan bo'lgan.

Makkada bo'lgan, qisqa vaqt Bag'dodda yashagan, Xirot, Nishopurda ishlagan, lekin asosan umrini o'z vatani Buxoroda o'tkazgan. Abu Axmad qasida, satiralar yozgan, she'rlarida pessimistik rux kuchli, shuningdek u qonunshunos olim ham bo'lgan.

Husayn ibn Ali al-Marvarudiy somoniylar davrining shoirlaridan biri. U ozirgi Murg'abning yuqori qismida joylashgan Marvarud shahrida to'g'ilib usib, Buxoroda yashagan.

Uning ijodi xalqqa yaqin bo'lgan. U shoxga qarshi qaratilgan shia, karmat harakatlarida ishtirok etgan.

Al-Laxham al-Xarroniy Buxoroda deyarli 30yil davomida ijod etgan o'z zamonasining mashhur shoirlaridan biri. U Termiz, Xorazm shaharlarida ham xizmat qilgan, asosan satira, qisman qasidalar yozib turgan. U somoniylar davrining vazirlari, davlat ishlari ustida ish yurituvchi shaxslar ustidan kulgan, yuqori lavozimdagi kishilarni qattiq tanqid qilgan. Ko'p asarlarini badixa tarzida yaratgan.

Abu Bakr Muhammad ibn al-Abbos al-Xorazmiy ((935-993) o'z davrining mashhur shoiri, yozuvchisi, olimi. Uning merosi arab tilidagi she'rlar va nasriy didaktik asarlardan iborat bo'lib, uz davri madaniyati tarixini o'rganishda muhim manbadir. U arab tili sohasida yirik mutaxassis bo'lgan, leksika, etnografiyani yaxshi bilgan. Nasriy asarlardan tashqari ko'p qasida, satira, marsiyalar yozgan. Davlat arboblari ustidan kulgan, ularni fosh etgan, ishyoqmas dangasalarni tanqid qilgan. U Xorazmda tug'ilib usib, so'ng uz yurtidan chiqib ketgan. Iroq, Suriya shaharlarida bo'lib Xalabda Sayf ud-Davla saroyida yashagan, so'ng Buxoroda Somoniylar saroyida bo'lgan.

Umrining oxirida Nishopurda yashab vafot etgan. Uning "Rasoil" ("Nomalar") asari nasrda yozilgan. "Rasoil" ilm-fan, axloq-odob, ta'lim-tarbiya, do'stlik haqidagi xatlar tuplamidan iborat bo'lib, ham mazmuni, ham yozish usuli jihatidan uz davrining ajoyib asaridir.

U yozishmalar-nomalar janrining so'nggi rivojiga juda katta ta'sir ko'rsatgan. Rashid ad-Din Muhammad al-Umari-Votvot (1114-16 yilda tug'ilgan, vafoti 1182-83 yillar) xorazmshoxlar saroyida yashab, uz she'rlari va nasriy asarlari bilan mashhur bo'lgan, boshqa qator shoirlarga xomiylik qilgan. Usha davr tarixchisi Yokut Hamaviyning "Irshod" kitobida qayd etilishicha, Votvot "she'r yozish va nasrda nixoyatda moxir edi, arab tili va grammatikasi sirlarini hamda adabiyotni hammadan ko'ra yaxshi bilar edi. Uning shuxrati butun olamga tarqaldi va barcha o'lkalarga mashhur bo'lib ketdi". Ba'zan u bir vaqtning o'zida ham arab tilida, ham fors tilida boshqa-boshqa vaznda she'r aytar edi. Votvot arab va fors tillaridagi she'riyatga oid qator devonlar muallifidir.

Abu Abdullox Muhammad ibn Hamid al-Xorazmiy uz davrining ajoyib shoiri va davlat arbobi. U xorazmshoxlar saroyida kotib, vazir, diplomat, elchi bo'lib ishlagan, qator qasidalar, lirik she'lar yozgan.

Ilk O'rta asr mualliflari Yoqut Hamaviy, Abn Abi Usayba asarlarida X-XII asrlarda Xorazmda xorazmshoxlar davrida juda ko'p shoir, yozuvchilar yashab ijod etganliklari haqida qimmatli ma'lumotlar keltiriladi. Abu Ali Naysaburiy, Al Bokkali, al-Xorazmiy, Yoqub as-Sakkokiy kabi unlab olim-shoirlar shular jumlasidandir.

Haydar al-Xujandiy somoniylar davrida Xujandda tug'ilib usgan, arab tilida ijod etgan shoirlardan. As-Saolibiy uning satira va lirik she'rlar yozganligi haqida ma'lumot beradi va baytlaridan misollar keltiradi.

FORS TOJIK TILIDAGI ADABIYOT

X asrlarga kelib fors-dariy tillarida badiiy adabiyot rivoj topa boshladi, ayrim xoqimlar, ayniqsa somoniylar fors tilidagi she'riyatning rivojiga katta e'tibor berdilar.

Buxoro, shuningdek Samarqand, Marv, Chagoniyen, Balx, Nishopur shaharlarida adabiy markazlar vujudga keldi.

Bu davrda fors-tojik tilida ijod etgan shoirlardan Shoxi Balxiy, Abdushukur Balxiy, Ravnaki Buxoriy, Dakikiy, Xabbar Nishopuriy, Shokir Buxoriy kabilarni kursatish mumkin. Lekin fors-tojik she'riyatini, badiiy adabiyotni Rudakiy, Firdavsiy, Dakikiy, Abdulxasan Termiziy, Nosir Xisrav, Umar Xayyom kabilar dunyoga mashhur qildilar.

Abu Abdullo Rudakiy O'rta asr fors-tojik she'riyatining buyuk ustози. U o'rta asrdayok shoirlar tomonidan "ustod" deb ulug'langan. Shoir IX asrning taxminan ikkinchi yarmida Samarqandga yaqin Rudak qishlog'ida tug'ilgan. U yoshligidanok she'riyat va musiqaga qiziqqan, arab va fors adabiyotini yaxshi bilgan, ilmlarni o'rgangan. Rudakiyning she'riy merosi nixoyatda boy va rang-barangdir. Rudakiyga mansub "Kalila va Dimna", "Davroni oftob",

"Sindbodnoma" singari qator poemalardan parchalar saqlanib qolgan bo'lsa-da, ular muallif merosining naqadar boyligidan dalolat beradi.

Mavzui, mazmuni jihatdan ham Rudakiy she'riyatni nixoyatda boy va rang-barang bo'lib, insonga muxabbat, insonparvarlik ruxi bilan sug'orilgandir. Uning she'riyatida gumanizm, ijtimoiy adolatsizlikni qoralash, inson aql-zakovatini ulug'lash, ilm-fanning ahamiyati, inson baxt-saodati singari masalalar muhim o'rin egallaydi. Badiiy jihatdan ham Rudakiy she'lari boshqalar uchun ibrat bularli darajada. Rudakiy ko'r bo'lgan.

Uning haqidagi ma'lumotlar bir-biriga ziddir. U zamonasining ilg'or g'oyalariga hamnafas bo'lgan, shialar va karmatlar xarakatiga xayrixoxligini bildirgan.

Ma'lumki, karmatlar uz davridagi ortodoks diniy dunyoqarashni tanqid qilgan xolda, tenglik va adolat g'oyalarini olga surgan edilar. Rudakiy shu bilan birga, uz iste'dodi, she'riyati bilan somoniylarning e'tiborini qozondi. Uning she'rlari sodda, jarangdor, xalq uchun tushunarli, mazmuni chuqur, ta'sir kuchi esa nixoyatda ta'sirchan bo'lgan. U uz she'rlarini kuyga solib, qushiq qilib kuylagan, barbadda yaxshi chalgan.

Abu Mansur Muhammad ibn Axmad Daqiqiy (942-979) X asrning Rudakiydan keyingi eng mashhur shoirlaridan. Ma'lumotlarga qaraganda, Samarqandda tug'ilgan va yoshligidan boshlaboq she'rga qiziqqan, somoniylar saroyida yashagan, asosan qasidalar yozgan.

Daqiqiyning 1209 bayti saqlanib qolgan, ularda zardushtlikka uzining xayrixoxligini bildirgan. U birinchi bo'lib "Shoxnoma"ni she'riy bayon etishga xarakat qilgan, lekin faqat bir qisminigina yozib tugatgan xolos.

Bu qism so'ngroq Firdavsiy tomonidan "Shoxnoma" epik poemasiga kiritilgan. Abulqosim Firdavsiy (942-1020) Tus yaqinida tug'ilgan, arab va fors adabiyotini yaxshi bilgan, butun umrini islomga qadar bo'lgan Eron shoxlarining afsonaviy qaxramonliklariga bag'ishlangan katta epik asar "Shoxnoma"ni yaratishga sarf etgan. Bu eposdagi voqea, xodisalar uzoq afsonaviy utmish haqida bo'lsa-da, Firdavsiy zardushtiy dinini ximoya etgan, zulm va istibdodni qoralagan, adolat va haqiqatni, qahramonlikni kuylagan, uz davridagi voqealarga munosabat bildirib turgan.

"Shoxnoma"da Firdavsiyning falsafiy, ijtimoiy-axloqiy qarashlari uz ifodasini topgan, unda xalqning donoligi ifodalangan. Shuningdek, asarda maqollardan ham keng foydalanilgan. "Shoxnoma" O'rta asrdagi fors-dariy she'riyatining oliy namunasi bo'libgina qolmay, muhim tarixiy manba hamdir. Uz she'riyatida ta'kidlaganidek, "Shoxnoma" asari bilan Firdavsiy uziga abadiy xaykal yaratib ketdi va avlodlar tashakkuriga sazovor bo'ldi.

Manbalarda ko'rsatilishicha, "u o'z davrining ilg'or g'oyalari-mutaziliylar e'tiqodida bo'lgan". "Shoxnoma"ni tugatib Sulton Maxmud G'aznaviyga taqdim etgan. U bu asar va shoirga yetarli darajada e'tibor va baxo bera olmagan.

Nosir Xisrav (1003-1088) uz davrining mashhur mutafakkiri va shoiri, uzining falsafiy mazmundagi nasriy asarlari, erkin she'riyati bilan nom qozongan.

Pomirning Kabodiyon shahrida tug'ilgan, asosiy ma'lumotni Marvda olgan va u yerda ijodini boshlagan, 35 yoshida O'rta Osiyodagi xukmron sulolalardan saljukiylar xizmatida bo'lgan. Uz davridagi ilmlarni puxta egallagan, falsafaga qiziqqan. Egallagan bilimlari bilan chegaralanib qolmay uzoq yillik safarda Eron, Arab mamlakatlari, Afrikaning shimoliy o'lkalarida bo'lib, ko'p olimlar bilan suxbat qilgan.

Nosir Xisrav xalq xayotini yaqindan o'rganib, mavjud xukmron siyosiy tuzumdan norozi bo'lgan xolda usha davrning xurfikrlikni, tenglikni targ'ib qiluvchilar g'oyalariga sherik bo'ldi. Nosir Xisrav forsiyda yozilgan qator nasriy asarlar muallifi, "Safarnoma", "Sadokatnoma", "Ruznoma", "Vajxidin" singari asarlar uning qalamiga mansubdir.

Nosir Xisrav Rudakiy, Daqiqiylar kabi musiqa rivojiga katta xissa qo'shdi.

Xisrav poeziyasining mazmuni ham ko'prok ilmiydir. Uning "Aql va ma'rifat" dostonida she'riy shaqlda O'rta asr Sharqining madaniy markazlari haqida ajoyib ma'lumotlar beriladi. Astronomiya, fizika sohasida yarim she'riy, yarim ilmiy farazlar olga suriladi.

Uz she'riyatida Nosir Xisrav diniy fanatiklarni, laganbardor shoirlarni, shoxlarni va boylik tuplashga ruju qilganlarni qattiq tanqid qiladi, xunarmandlar, dexqonlarga tasannolar o'qiydi, ilm-fan, donolik, do'stlikni ulug'laydi, ikki yuzlamachilik, pastkashtlikni qoralaydi.

XI asrning ajoyib fors adabiyoti namunalaridan biri "Kobusnoma" dir. Bu asar nasixatnoma tarzida yozilgan bo'lib, otaning ug'liga qilgan pand-nasihatdan iboratdir.

"Qobusnoma" muallifi Zaxriddin Kaykovus (1021-1082) Kaspiyning janubiy qismida Tabariston yerlarida tug'ilib usgan bo'lsa-da turmush tarzi, madaniyati, tili jihatidan O'rta Osiyo va Xurosonga, somoniylar va saljuqiylarga yaqin edi. Shuning uchun ham "Kobusnoma" O'rta Osiyoda keng tarqaldi. Bu asar muallifi Sharqning qator shaharlarida sayoxatda bo'lgan, ilm-fan, adabiyotga qiziqqan, uz davrining yetuk olim-fozillari haqida keng ma'lumotga ega bo'lgan. "Kobusnoma" musulmon Sharqi adabiyotida shaqllangan nasriy - didaktik yo'nalishning-nasixatnomaning eng ajoyib namunalaridandir. Unda axloqiy masalalar, ota-onaga va do'stlarga hurmat, ilm-fanni egallash bilimli bo'lish, ovqatlanish, odamlar orasida uzini tuta bilish, odob saqlash, mehmon kutish, shaxmat, narda uynash tartibi, oila kurish xususida nasixatlar, shuningdek savdo-sotiq, tibbiyot, astronomiya, geometriya, poeziya, musiqa, dexqonchilik, turli davlat lavozimlarida xizmat qilish haqida maslahatlar beriladi.

Bu nasihatlarni usha davr yoshlari uchun maxsus qo'llanma, muhim tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan kurgazma deb atash mumkin. Umuman bu davr Sharqda axloqiy xarakterdagi nasriy asarlar ko'p yaratilgan bo'lib, ular musulmon mamlakatlari, jumladan O'rta Osiyoda, Xurosonda yaratilgan boy pedagogik merosni o'rganishda katta ahamiyat kasb etadi.

O'rta Osiyoda ma'lum bo'lgan didaktik xarakterdagi asarlardan yana biri Nizomiy Aruziy Samarqandiyning "Chor maqolasi" dir. "Chor maqolasi" XII asrning o'rtalarida yozilgan bo'lib, unda nasixat - didaktika janri yordamida usha davrning voqealari, Rudakiy, Umar Xayyom, Ibn Sino, Beruniy kabi mashhur shaxslar haqida xikoya qilinadi.

"Chor maqola" xikoyalari asosida inson, uning aqliy faoliyati, ma'rifatga intilishi, yomonlikni qoralashi yotadi. Shox va uning xizmatchilariga xushomadlar qilingan bo'lsa-da, odamlar o'rtasidagi munosabat, voqealar, real chiziqlarda tasvirlangandir.

XI-XIV asrlarda fors-tojik tilida ijod etib nom qozongan va uz davri madaniy xayotida muhim rol uynagan O'rta Osiyolik mutafakkir shoirlardan Sobir Termiziy (XI-XII asrlar), Amaxi Buxoriy (1149-yilda ulgan), Suzani Samarqandiy (1173-yilda ulgan), Paxlavon Maxmud (XIII-XIV) kabilarni ko'rsatib o'tish mumkin.

Sobir Termiziy she'riyat qonuniyatlarini yaxshi bilishi bilan birga riyoziyot, falakiyot bilimlarini ham puxta o'rgangan. Termizda tug'ilib yirik olim, shoir bo'lib yetishgan va Xurosonning turli shaharlarida yashagan.

Uning ijodida ilm-fanga, ta'lim-tarbiya, axloq-odob masalalariga katta e'tibor berilgan. Xorazmda tug'ilib usgan Amaxi Buxoriy saroy shoiri sifatida nafis she'riyat shaqlarini rivojlantirgan bo'lsa, Suzani Samarqandiy asarlarida satira va xajviyaga e'tibor kuchli, demokratik motivlar o'rin egallaydi. Paxlavon Maxmud esa uzining falsafiy she'riyatida Umar Xayyom g'oyalarini davom ettirgan, uz davri uchun xos ilgor ijtimoiy-gumanistik fikrlarni olg'a surgan. Mug'ul bosqinchilarining zulmi tufayli vujudga kelgan huquqsizlikni fosh etgan, uz xalqini ulug'lagan.

Bu davrda, XI-XII asrlarda mug'ullarning O'rta Osiyoga bosib kelishidan avval rivojlangan Xorazm davlatida badiiy adabiyot keng taraqqiy etdi.

Yozuvchi-shoirlar fors-arab va turkiy tilda ijod etdilar. Ma'lumki, bu davrda Xorazmshoxlar O'rta Osiyo va Eronning ko'p qismini uzlariga karam etib, katta davlat tuzdilar, ko'p shahar va o'lkalardan kelgan shoir, olimlar xorazmshoxlar saroyida panox topdilar, e'tibor qozondilar.

Bulardan Muhammad al - Farobiy, Toxir Aksiketiylar Ali al-Adab al-Xorazmiy, Rustam al-Xorazmiy Muhammad Axsiketiylar Axmad as-Samarqandiy, Ibroxim al-Nasafiy kabi qator shoirlarni, devon va tuplamlarning mualliflarini ko'rsatib utish mumkin. Bularning ayrimlari

Chingizxonning O`rta Osiyoga xujumi davrida unga qarshi urushlarda ishtirok etib qurbon bo`ldilar.

TURKIY TILDAGI ADABIYOT

XI-XII asrlarga kelib ijtimoiy, madaniy xayotda turkiy tilning keng tarqalib borishi, davlat ishlarida keng qo`llanishi ko`zga tashlandi; arab, fors tillaridagi badiiy asarlar bilan birga turkiy tilda ham yirik dostonlar, she`rlar, yaratildi. Yusuf Xos Xojibning "Kutadgu bilig" va Ahmad Yugnakiyning "Xibat ul-xakoyik" asarlari shular jumlasidandir. Bu asarlar usha davrda Sharqda keng tarqalgan bo`lib, pand-nasixat usulida yozilgandir.

Yusuf Xos Xojib uz davrining atoqli shoiri, donishmand va davlat arbobi bo`lib, Qoraxoniylar davlatining yirik shaharlaridan bo`lmish Balasogun shahrida tug`ilib irod etdi. Uz asarini u 1069-70 yillarda Qashqarda yozib tugatdi va Qoraxoniylar xukmdori Bug`raxonga taqdim etdi. "Qutadgu bilik" ("Baxt saodatga eltuvchi bilim") uz davridayok nom qozongan. Muallifning ta`kidlashicha, u turli o`lkalarda turli nomlar bilan ma`lum bo`lgan.

Asarda muallif usha davrga xos turli sohalaridagi ilg`or fikrlarni bayon etadi. Asar nasriy muqaddimadan so`ng 77 baytdan iborat bo`lgan she`riy muqaddima bilan boshlanadi hamda 73 ta bob nomining mundariyasi beriladi.

Boshlang`ich boblar usha davr Sharqdagi anyanaviy masalaga-Ollox va Payg`ambar dinining foydasi, turli xalifalarga bagishlanadi. So`nggi boblarda dunyoviy, ijtimoiy - siyosiy, axloqiy, ilmiy masalalar yoritiladi.

Asarda markazlashgan davlatni mustaxkamlash, nizolarga chek qo`yish, ma`rifat, obodonchilikka e`tiborni kuchaytirish, ilm egallash, kambag`allar axvolini yaxshilash, mehr-shafkatli bo`lish kabi muhim ijtimoiy-didaktik masalalar kutariladi. Unda davlatni idora etish yullari, beklar bu yulda uz atrofiga aqli, bilimdon odamlarni jamlashi darkorligi, amaldorlarning burchi - vazifasi, elga nisbatan adolatli bo`lish kabi siyosiy masalalar ham uz ifodasini topadi. Yusuf Xos Xojib uz asarida ilm-ma`rifatning jarchisi va xomiysi sifatida namoyon bo`ladi. Fanni egallashni saodatning kaliti deb karaydi, uning pand-nasixatlari axloqiy masalalar - rostguylik, sevgi-sadoqat, xalollik, tildan to`g`ri foydalanish, dadil va xushyor bo`lish kabi masalalarni ham qamrab oladi. Bu ugitlar badiiy obrazlarda turli hikoyalar orqali uquvchiga yetkaziladi. Asarda xalqdan olingan juda ko`p turkiy tildagi maqol va matallar ishlatilgan:

O`qish ko`rki til ul, bu til ko`rki so`z

Kishi ko`rki yuz ul, bu yuz ko`rki ko`z

(Aqlning ko`rki til, tilning ko`rki so`z, kishi ko`rki yuz, yuzning ko`rki ko`zdir).

Oqar suv, yirik til bu ko`b turmadi,

Ajun tazginurlar yurib tunmadi

(Oqar suv, mahmadona til turib qolmaydi, dunyo harakatda yuradi, tinmaydi).

Bu davrning turkiy zabon shoirlaridan yana biri Axmad Yugnakiydir. Uning bizgacha yagona "Xibatul - xakoyik" asari yetib kelgandir. Ayrim ma`lumotlarga karaganda muallif Samarqand yaqinidagi Yugnak shahrida tug`ilgan.

Asar 254 baytdan iborat bo`lib, 14 bobni uz ichiga oladi, pand-nasixat, didaktik usulda yozilgan.

Unda ilm-ma`rifatli bo`lish, yaxshi axloqiy xislatlarni tarbiyalash singari masalalar ilgari suriladi. Muallif inson baxt-saodatga erishishi uchun ilm-ma`rifatni egallashi zarur ekanligini aloxida uktiradi. Yugnakiy uz asarida biror anik voqea, xodisa yoki sarguzashtni hikoya qilmaydi, u odob axloq va ma`rifatga oid didaktik masalalarni bayon yuli bilan ifodalaydi.

Doston Axmad Yugnakiyning XII asrning ma`rifatparvari, ilm jarchisi sifatida gavdalanitiradi. Asar zolim bilan joxilni bir-biriga zid kuyadi, olim ilm yordamida baxt-saodat kidirsa, joxil nodonligi tufayli yomon ishlarga giriftor buladi, boshqalarga ziyon keltiradi. Ilm va olimni qadrlash zarur:

Baholik dinor ul biliklik kishi

Bu johil biliksiz - bahosiz kishi.

Biliklik biliksiz qachon teng bo`lur?

Biliklik tishi er, johil er-tishi.

(Bilimli kishi qimmatli oltindir. Bilimsiz johil kishi arzimas qalbaki aqchadir. Bilimli ayol erdir, bilimsiz er ayoldir).

Shoir zodagonlar va amaldorlarni marhamatli, raxmdil bo`lishga chakiradi. Zamonasining an'analarini davom ettirib, dostonning so`nggi qismida shoir Ollox, paygambarga raxmatlar aytib, Qur'on oyatlarini keltiradi, dinga sadokatli bo`lishga chakiradi Ahmad Yassaviy (1105-1166) O`rta Osiyoda shaqllangan tasavvuf oqimining yirik asoschilardan biri, turkiy tilda mistik-axloqiy she'rlar muallifi.

Uning "Devoni xikmat"i she'rlar tuplami mazmunan sufiylik xarakterga ega bo`lsa-da, u tili, badiiyati jihatidan XII asr turkiy she'riyatining ajoyib namunalaridan xisoblanadi. U xalq og`zaki adabiyotiga yaqin turadi.

Shuning uchun ham Yassaviyning mistik-axloqiy she'riyati xalq orasida tez tarqaldi. Unga she'riyatning ham mazmuni, ham shaqli jihatidan ergashganlardan biri Sulaymon Bokirgoniy bo`ldi. Uning "Boqirgon kitobi"ga kirgan she'rlari sufiylikning eng yorokin namunalardan bo`lib, ogizdan ogizga utib kelgan. O`rta Osiyoda mug`ullar istilosidan so`ng tasavvuf yo`nalishi keng tarqalib, turkiy adabiyotda sufiylik motivlar kuchaydi. XIII asrlarning oxiri - XIV asrning boshlarida Xorazmda yozilgan "Qissai Rabg`uziy" turkiy tilda yozilgan nasriy asar namunalaridandir.

Unda 72 qissa, kichik xajmli xikoyalar keltirilib, ular asosan diniy mazmundadir, bularning ko`p kismi "Qur'on" mazmunidan olingan.

Badiiy madaniyat haqida yukorida keltirilgan misol, dalil va tafsillardan shunday xulosalar chikarish mumkin.

San'atning arxitektura, tasviriy san'at, musiqa va muzikashunoslik, uymakorlik kabi turli yo`nalishlari, ayniqsa badiiy adabiyotning turli ko`rinishlari, shaqlari qiska vaqt ichida nixoyatda rivoj topgan. Badiiy adabiyot uch tilda - arab, fors-tojik va turkiy tilda keng taraqqiy etib musulmon Sharqida erishilgan bu sohadagi yutuqlarni uzida ifodalagan. Badiiy adabiyot, asosan doston, she'riyat va kichik qissalardan iborat bo`lgan, ma'lum mavzuga buysundirilgan nasriy asarlar tarzida taraqqiy etgan.

Bu davrda Sharq she'riyatining barcha turlari, shaqlari shaqlanib keng taraqqiy etgan, xozirda ham Sharqda asosan shu shaqlar ishlatiladi. Xususan, she'riyatda masnaviy, g`azal, qit'a, ruboiy, xalq og`zaki adabiyotida tarqalgan usullar keng yoyilgan.

She'riyat mavzui, mazmuniy yo`nalishi jihatidan ham rang-barang bo`lib, lirik, satirik, pand - nasixat, didaktik, tarixiy - afsonaviy, mistik, diniy, axloqiy-falsafiy xarakterga ega bo`lgan.

Badiiy adabiyotning markazida asosan inson, uning aql -zakovati, axloq-odobi, boshqalarga munosabati, ilm-fanga e'tibori, insoniylik mohiyati kabi masalalar turgan. Badiiy adabiyot ma'lum maqsadga, insonni ulug`lash, uni ma'naviy yuksaltirishga qaratilgan.

Badiiy adabiyot asarlari ilk O`rta asrning falsafiy, didaktik, pedagogik, ijtimoiy-siyosiy, axloqiy, estetik, tarixiy merosini o`rganish uchun nixoyatda muhim manbalardan biri bo`lib uz davrining ma'naviyatini, madaniyatining yutuqlari, darajasini uzida ifodalagan. Butun musulmon mamlakatlari madaniyati tarixida bu qadar Xorazmiy va Firdavsiy, Rudakiy va Umar Xayyom, Yusuf xos Xojib va Axmad Yugnakiy kabi zur klassiklarga boy davr bo`lmagan. Ular ham arab, ham dariy, ham turkiy she'riyat rivojiga, turli yo`nalishlarga asos soldilar. Ularning xissalari uz davri madaniyatining yuksalishida beqiyosdir.

ILOXIYOT, DINSHUNOSLIK, ISLOM DINI

Islom dini O`rta asrda barcha musulmon mamlakatlari singari O`rta Osiyo xalqlari madaniyati, ma'naviyatining eng asosiy va nixoyatda muhim bo`lgan kismigagina emas, xislatiga ham aylanganligini yuqorida qayd qilib o`tdik.

Islomning asosiy muqaddas manbai-Qur'on oyatlari va suralaridir, ularda asosiy diniy qonun-qoidalar, aqidalar bayon etilgan. Undan so'ng asosiy manbai Xadis-Muhammad payg'ambarning aytgan so'zlari, uning xayotiy faoliyati, ko'rsatmalari haqidagi rivoyatlar tuplamidir. Bu ikki asosiy manba muqaddas xisoblanib kalom va shariat shular asosida vujudga kelgan. Kalom suzi VIII asrlarda shaqllangan bo'lib, u islomning nazariy falsafiy ta'limotidan iboratdir. Kalom O'rta Osiyoda ham keng tarkaldi.

Qur'ondagi axloqiy va xukukiy normalar keyinchalik shaqllangan shariatga ham asos bo'ldi. Shariatda ular xukukiy tizim sifatida kuchga kirdi. So'ngrok esa shariat qonun-qoidalarini ishlash, tartibga solish, talqin berish bilan shug'ullanuvchi Islom ilo-xiyotining muhim sohasi-musulmon xuquqshunosligi fikri vujudga keldi va O'rta Osiyoda keng tarqaldi.

Shu bilan birga islom dinshunosligining muhim tarmog'i sifatida Qur'on, Xadis va boshqa diniy manbalarni talkin etish-tafsir keng avj oldi.

Bularning hammasi O'rta Osiyoda keng tarkaldi. Ularni shakllantirish va rivojlantirishda Movarounnaxr va Xurosonning dinshunos olimlari, mutafakkirlari ham katta xissa kushdilar, bu bilan ular butun musulmon olamida nom tarqatdilar. Umuman qadimgi madaniyatga ega bo'lgan O'rta Osiyoda islom dini va dinshunosligiga ma'naviy madaniyatning ifodasi axloqshunoslikning yo'nalishi sifatida munosabatda bo'lingan.

Xususan IX asrda musulmon o'lkalarida xadisshunoslik, xadis tuplash, uni urganib tartibga solish dinshunoslikning eng muhim sohalaridan xisoblangan. To'plangan xadislarning xajmi, chinligi, tartibi, ahamiyati bilan musulmon olamida olti muxaddis (xadis tuplovchi) mashhur bo'ldi.

Shulardan uchitasi O'rtaosiyolikdir. Muxaddislar ichida eng obrulisi va mashhuri Imom Buxoriydir (809-970). U Buxoroda tug'ilib, shu yerda uz davri ilmlarini, ayniqsa diniy bilimlarni xar tomonlama o'rgangan. So'ng uz bilimlarini mukammallashtirish maqsadida Makka, Madina, Bag'dod, Damashk, Xijoz, Kufa, Nishopur kabi juda ko'p shaharlarga borgan. Bu shaharlarda u ko'p olimlar, dinshunoslar, muxaddislar bilan uchrashgan, so'ng Vataniga qaytib Samarqand yaqinida vafot etgan.

Buxoriydan bizga juda katta meros qolgan. Uning islom dinshunosligiga oid 20 ga yaqin katta xajmdagi asarlar yozgani ma'lum. "Al-Jome' as-Saxix", "At-tarix al-Kabir", "At-tarix as-sagir", "Al-Adab al-mufrad" kabi asarlar shular jumlasidandir. Buxoriyni butun musulmon olamiga mashhur qilgan asari turt jildli "Al-Jome' as-Saxix" ("Ishonchli tuplam") bo'lib, u "Saxix al-Buxoriy" nomi bilan ham ma'lumdur. Bu asar 160 kismdan iborat bo'lib, 3450 bobni uz ichiga oladi. Buxoriy xadislarni tuplash va bayon etishda ularning haqiqiylikiga katta e'tibor bergan. Uning diqqat markazida dinning inson uchun tarbiyaviy ahamiyati, uning ma'naviy yuksalishi, tozaligi, donoligi, yaxshi va yomonni bir-biridan ajrata bilishi turadi. Dinning, xadislarning asosiy maqsadi do'stlik, adolat, o'zaro munosabatlarni mustaxkamlash, insonni yomonlikdan saqlash bo'lgan.

"Saxix"butun musulmon olamida keng tarqalgan, unga taqlidlar, sharxlar, tadqiqotlar yozilgan. Buxoriyning yaqin shogirdlaridan bulmish mashhur muxaddislaridan biri Imom at-Termiziydir (824-892). U Termizga yaqin Bug kishlogida tug'ilib, Sharqning juda ko'p shaharlarida bo'lib, uz davrining diniy ilmlarini egallagan va uz vatanida vafot etgan. At-Termiziy undan ortik diniy asarlar muallifidir. "Jomye al-kabir" ("Jomye at-Termiziy") "Ash-Shamoil al-nabaviya", "Al-Ilal fi-(fi-l)-xadis", "Risala fil xilof va-l-djadal", "At-tarix", "Kitob az-Zuxd" kabi asarlar shular jumlasidandir. Bu asarlar xadislardan tashqari filologiya, tarixga oid masalalarni ham uz ichiga qamrab olgan. Termiziyning musulmon olamiga mashhur qilgan asari "Jomye at-Termiziy" yoki "Sunan at-Termiziy"dir.

Bu asar islomda haqiqiy deb tanilgan mashhur 6 xadis tupamlaridan biridir. Bu xadislarda diniy masalalar bilan birga axloqiy masalalar, insonparvarlik g'oyalari uzining keng ifodasini topgan. Ularda axloqiy fazilatlar ulug'lanib, ug'rilik, zuravonlik, yolg'onchilik, ikkiyuzlamachilik, manmanlik kabi salbiy xislatlar qoralanadi. Termiziy merosi faqat diniy ahamiyatga ega bo'lib qolmay, u axloqshunoslik, didaktika tarixida ham muhim o'rin tutadi.

Islomda mashhur bo'lgan muxaddislardan yana biri Abu Abduraxmon an-Nasoiydir (830-915). U Niso (Turkmaniston) shaxrida tug'ilib, Sharqning qator ilm markazlarida uz bilimni oshirgan, uzok vaqt Misrda yashagan va uz vatanidan uzokda-Palastinning Romla shaharida vafot etgan. U Misrdalik chogida xadislar tuplami "at-Sunai al-Kubro" ni, so'ngroq uning asosida eng ishonarli xadislarni ajratib, "Al-Mujtaba" nomidagi ikkinchi, qisqartirilgan "Al-Sunan" kitobini yozib qoldirgan. Bu kitob ham islom dinshunoslari orasida katta obruga egadir. Oltita mashhur xadisshunoslarning qolgan uchtasi Eron va Arab mamlakatlaridadir. O'rtaosiyolik olimlar xadisshunoslik bilan birga islom xukukshunosligi -fikx hamda Qur'onga tafsir yozish sohasida ham shuxrat qozonganlar.

Masalan, O'rta Osiyodan chikkan mashhur xukukshunoslardan Burxoniddin Marginoniy, Abu Lays Samarqandiylarni ko'rsatib o'tish zarur. Burxoniddin Marginoniy. Ali ibn Abu Bakir al-Farg'oniy ar-Rishtoni (1197 yilda vafot etgan) qator asarlar muallifi bo'lib, fikxga oid eng mashhur kitobi "Xidoya fi-l- furuz" ("Shariat sohalari bo'yicha kullanma") dir. "Xidoya musulmon xukukshunosligi sohasidagi eng yirik va keng tarqalgan asarlardan biri bo'lib, fors, ingliz va rus tillariga ugirilgan va hozirga qadar uz ahamiyatini yuqotgani yo'q. Xorazmshoxlar xukmronligi davrida Movarounnaxrda Abdul-Xasan al Xorazmiy, An Naxaviy al-Adab, Yokub Sakkokiy kabi islom qonunshunosligi, iloxiyoti bilan chuqur shug'ullangan taniqli olimlar haqida manbalarda qator ma'lumotlar keltiriladi.

Islomning asosiy manbai "Qur'on"ga tafsir (sharx, izox) yozish sohasida ham bu davrdagi O'rtaosiyolik olimlardan Xorazmda yashab ijod etgan Zamaxshariy, Faxriddin Roziy kabilar uz asarlari bilan Islom dinshunoslari orasida nom qozonganlar.

Shuni aloxida ta'kidlash lozimki, bu davrda dinshunoslik, islom iloxiyotini o'rganish, kalom, fikx, ilm-fan, ilmiy madaniyatning muhim sohalaridan xisoblangan va ilmlar tasnifi tizimida muhim o'rin egallagan. Shu sababdan bo'lsa kerak bu davrda komusiy olim-mutafakkirlar turli anik bilimlar qatorida diniy bilimlar bilan ham mashgur bo'lganlar. Diniy bilimlarni O'rta asr ma'naviyati, madaniyati uzining uzviy va tarkibiy kismi sifatida talkin etgan.

Shuningdek, manbalarda islomni o'rganish bilan bog'liq bo'lgan bilimlar "shariat ilmlari" deb nom olgan.

FAN, TABIATSHUNOSLIK, FALSAFA VA GUMANITAR ILMLAR.

O'rta asr madaniyati shu darajada yuksaqlikka kutarilgan-ki, dunyoviy ilmlar, turli anik fanlarning yutuqlari, natijalari uning mazmunini belgilashda muhim ahamiyat kasb etgan, turli sohalarda ijod etilib, katta yutuqlar qo'lga kiritilgan. O'rta Osiyoda dinshunoslikning uta rivoj topgan asri IX asr bo'lsa, XII asr ilm-fan taraqqiyotining chukkisi bo'ldi. Usha davrdagi ilmning xajmi, mikyosi, kengligi ayrim mualliflar asarida uchrovchi ilmlar tasnifida yakkol namoyon bo'ldi. Uz davrining qator komusiy aqlari-Forobiy, Ibn Sino kabilar bu masalaga katta e'tibor berdilar, ayrim mualliflar esa unga maxsus asarlar bagishladilar. X asrda Somoniylar davrida yashab ijod etgan Abu Abdullax al-Xorazmiy bu masalaga bagishlangan katta maxsus asar "Mafotix al-ulum"da ilmlar tasnifini batafsil yoritdi.

Undan oldin Forobiyning "Ixso al-ulum" risolasida ham ilmlar tasnifi xususida maxsus tuxtab utilgan edi. U barcha ilmlarni 5 ta katta bulimga ajratadi, til haqidagi ilm uz ichiga 7 kismni oladi, so'ng tabiiy va ilohiy fanlar yoki riyoziyot va shaharni boshqarish haqidagi ilmlar X asrda yaratilgan "Sof birodarlar"ning "Ilmiy san'atlar haqida"gi risolasida umumiy ilmlar turt katta guruxga bulinadi. Xar bir gurux uz navbatida qator sohalarni uz ichiga kamrab oladi, hammasi bo'lib 36 ta ilm tarmogi sanab utiladi. Al-Xorazmiyning "Mafotix al-ulum" risolasida barcha ilmlar an'anaviy ilmlar yoki gumanitar ilmlarga hamda noan'anaviy, noarab ilmlarga bulinadi. Birinchisi fikx, kalom, grammatika, ish yuritish, she'riyat hamda tarix ilmini; ikkinchisi noarab ilmlar - falsafa, mantik, tibbiyot, arifmetika, geometriya, falakiyot, musiqa, mexanika, kimyo singari fanlarni uz ichiga oladi.

Umuman barcha ilmlarni arablarda avvaldan ma'lum bo'lgan yoki shariat uz ichiga oluvchi ilmlar hamda arablarda ma'lum bulmagan, shariatga aloqasiz, boshqa xalqlardan kirib kelgan ilmlarga ajratish deyarli barcha mualliflarda uchraydi.

Arablarda bulmagan ilmlar asosan qadimgi yunonlarda keng urganilgan ilmlardan tashkil topgandir, "Shariat" ilmlarining asoslari haqida yukorida kiskacha tuxtab utgan edik.

Noarab yoki tabiiy ilmlarni va falsafani usha davrdagi mashhur olim-faylasuflarning faoliyati bilan bog'liq xolda kurib utamiz. IX - XII asrlar davomida O'rta Osiyo xalqlari dunyo madaniyatiga ilm-fanning turli sohalari bo'yicha, xususan, arab yoki traditsion an'anaviy ilmlar, ya'ni asosan gumanitar ilmlar sohasida ham, noarab, noan'anaviy ilmlar, ya'ni falsafiy ilmlar, tabiatshunoslik ilmlari sohasida ham juda o'lgan xissa kushdilar. Bu davrda yashab ijod etgan O'rtaosiyolik buyuk olimlarning ijodi, faoliyati, asarlari O'rta asr ilm-fani rivojida nixoyatda muhim o'rin tutadi. O'rta Osiyodan chikkan Xorazmiy, Fargoni, Forobiy, Ibn Sino, Beruniy singari olimlarning nomi butun Sharq va Ovrupo O'rta asrida nixoyatda hurmat bilan tilga olinadi.

Muhammad ibn Muso al Xorazmiy (780-850)-Sharqning buyuk olimi, dunyo riyoziyot ilmi rivojiga behisob hissa qushgan O'rtaosiyolik olim, Marvda Ma'mun saroyiga jalb etilib, so'ng xalifalik markazi Bagdodda xizmat qilgan va "Baytul-Xikma"-birinchi arab ilmiy markazida raxnamolik qilgan."Algebra" va "algoritmi" tushunchalarini paydo bo'lishi Xorazmiy faoliyati bilan bog'liqdir. "Algoritmi" Xorazmiy nomining lotin tilidagi ifodasidan; "algebra" suzi esa uning matematikaga oid "Aljabr va al-mukobala" asarining birinchi suzi lotincha talaffuzidan olingandir.

Xorazmiy musulmon dunyosida birinchi bo'lib riyoziyot, jugrofiya, tarix fanlarining rivojini boshlab berdi, uning asosiy asarlari shu sohalarga oiddir.

Xorazmiy kalamiga 12 ga yaqin turli sohalarga oid risolalar mansubdir. Bu asrlar XII asrda lotin tiliga tarjima etilgan. "Arifmetikaga oid risola" ning arabcha nusxasi saqlanmagan. Lotincha nusxasi "Al-Xorazmiy xind xisobi haqida" deb nomlanib, bu asarining birinchi suzidan so'ng "algoritmi" atamasi vujudga kelgan.

Uning riyoziyot ilmiga oid ikkinchi risolasi "Algebra haqidagi risola" ham XI asrda lotin tiliga tarjima etilgan. Bu xar ikki risola matematika rivojida yangi bir davr ochgan asarlardir.

Yana Xorazmiyning "Ziji"-yulduzlar jadvali ham lotinchaga ugirilgan. Uning mashhur asari "Kitob suratil ard" ("Yer yuzining kartasi") musulmon Sharqida jugrofiya ilmini boshlab bergan.

Xorazmiy O'rta asr Sharqida birinchi bo'lib tarix yozganlardan biridir. Uning "Kitob at-tarix"asaridan ayrim parchalar saqlanib qolgan.

Bulardan tashkari yana u astrologiyaga oid, kalendar tuzish, vaqtni ulchash, soat haqida ham risolalar yozgan, lekin ularning ko'pchiligi bizga kadar yetib kelmagan.

Hindistonda vujudga kelgan unlik sistemasi Xorazmiy asari tufayli musulmon Sharqi va Ovrupoga ma'lum bo'ldi. Uning "Ziji" asari qadimgi yunon va xind astronomiyasi erishgan yutuqlar asosida yaratilib, u O'rta asrda bu sohadagi tadjikotlarni boshlab berdi.

Xorazmiyning zamondoshlaridan biri mashhur astronom Abul Abbos Fargoni (860 yillar O'rtasida vafot etgan). U ham O'rta Osiyodan bo'lib, xalifalik markazi Bagdodda xizmat kildi, musulmon Sharqida falakiyot ilmiga asos soldi. Uning jugrofiya, falakiyotga oid asarlari ma'lum bo'lib, uni dunyoga mashhur qilgan "Javomi ilm an-nujum val xarakat as-samoviya" kitobidir.

Bu asar XII asrdayok lotin tiliga tarjima etilib tezda butun Ovrupada mashhur bo'lib ketdi. Algorezm kabi uning lotincha nomi "alfraganus" ham usha davrdagi juda ko'p manbalarda uchraydi.

Farg'oniyning bu asarida juda ko'p va muhim jugrofiy ma'lumotlar ham keltiriladi. Shuning uchun ham uning nomi juda ko'p manbalarda O'rta osiyolik mashhur astronom va geograf sifatida tilga olinadi.

Xorazmiy va Fargʻoniy bilan birga Bagʻdodda boshqa Oʻrta osiyolik olimlar ham ilm rivoji yulida jasorat koʻrsatdilar. Bular orasida Abu Mashar Balxiy, ota-ugil Marvoziy, ota-ugil Marvarudiy, as-Saraxsiy kabilarni kursatish mumkin.

IX - X asrning boshlarida Oʻrta Osiyoda mustakil feodal davlatlar shakllanishi bilan Buxoro, Samarqand, Marv, Kot (Xorazm), Termiz kabi shaharlar ilm-fanning markaziga aylandi. Bu davrda Xakim Termiziy, Axmad ibn Nasr Jayxoni (870-914) kabi olimlar ijod etdilar. Jayxoni jugrofiyaga oid 7 jildlik "Kitob ul-masolik val mamolik" ("Masofalar va mamlakatlar kitobi") asarini yaratdi va unda juda koʻp mamlakatlar haqida noyob maʼlumotlar keltirdi.

Bu davrning buyuk komusiy olimi va faylasufi Abu Nasr Forobiydir (873-950). U Shosh (Toshkent) ning shimolida joylashgan Forob yeri – Utrorda tugʻilib, boshlangich maʼlumotni Shosh, Buxoro, Samarqand shaharlarida olgan. Soʻng Bagʻdodda uzoq yashab, zamonasining olimlari bilan ilmiy mulokotda boʻlgan. Umrining oxirini Xalabda utkazgan. U ilmning turli sohalariga oid 160 dan ortiq risolalar yaratgan. U yunon ilmining yutuqlari, xususan, Aristotel merosini chuqur bilgani, ularni Sharqda rivojlantirgani uchun "Al-muallimi as-Soni" ("ikkinchi muallim", Sharqda Aristotel - Arastu "birinchi muallim" deb tanilgan) unvoniga sazovor boʻlgan.

Uning risolalari riyoziyot, falakiyot, tibbiyot, axloqshunoslik, musiqashunoslik, davlatni boshqarish, ayniqsa falsafa va mantik ilmi masalalarini uz ichiga oladi.

Aristotelning barcha falsafiy asarlariga yozilgan sharxlari, "Uyun al-masoil" ("Masalalar bulogi"), "Ixso al-ulum" ("Ilmlar tavsifi"), "Fusus al-xikam" ("Xikmat xulosasi"), "Taolik fi-l xikmat" ("Falsafaga oid izoxlar"), "Kitob fi-l lugat" ("Lugatlar haqida kitob") kabi asarlar shular jumlasidandir. Forobiy talkinida mavjudot bir butun va rang-barangdir, vujudga kelgan moddiy olam abadiy, yuk bulmaydi va cheksizdir. Inson mavjudot rivojining yakuni, aql-idrok orkali dunyoni urganadi. Maʼrifatga intilish, ilm-fanni egallash, axloqli boʻlish insonga xos oliy fazilatdir. Uning maqsadi aql, bilim, axloq yordamida baxt-saodat keltiruvchi jamoaga erishuvdir. Forobiy buyuk gumanist, uning gumanizmi aql, tafakkur, ilm kuchiga asoslangandir. Forobiy uzining "Grajdanlik siyosati". "Fozil shahar axolisining raylari", "Baxt-saodatga erishuv haqida" risolalarida insonlar uchun adolat, oʻzaro hamjihatlik, farovonlik, erkin mehnat kiluvchi yetuk-fozil jamoa haqidagi taʼlimotni olga surdi va madaniyat tarixida asrlar davomida insoniyat ardoqlab kelgan muhim masalani asoslab berdi. Forobiy musulmon Sharqida ilgʻor falsafiy va ijtimoiy-axloqiy taʼlimotlarga, dunyoviy musiqashunoslikka asos soldi, mantikshunoslik, shaharni boshqarish sohalarida ham rivojlanish yullarini belgilab berdi. Forobiy asarlari XII asrdan boshlab lotin tiliga tarjima eʼtilib, Ovrupoda keng tarqaldi.

Uning gʻoyalari F. Bekon, Spinoza kabi faylasuflar dunyoqarashiga katta taʼsir koʻrsatdi. Forobiyning ilgʻor fikrlarini Abu Ali ibn Sino yanada oliy darajaga kutardi. U Buxoroda (980-1037) tugʻilib usdi, soʻng Oʻrta Osiyo, Eronning juda koʻp shaharlarida boʻldi. Hamadonda vafot etdi.

Ovrupoda soʻngrok "Avitsenna" nomi bilan mashhur boʻlgan bu komusiy olim uz davrining barcha ilmlarini chuqur oʻrgandi; 500 ga yaqin turli sohalariga oid risolalar, sheʼrlar koldirdi, ayniqsa u falsafa, mantikshunoslik va tibbiyot sohasidagi tadkikotlari bilan madaniyat rivojida sunmas iz koldirdi, dunyoda mashhur boʻldi.

U uz asarlarini arab va fors - tojik tillarida yozdi, bu tilda ajoyib sheʼrlar, ilmiy dostonlar ham yaratdi. Uning eng yirik asarlari sarasiga "Kitob konun fi-t tib" ("Tib ilmi konuni"), "Kitob ash-shifo" ("Ruxni davolash kitobi"), "Kitob an-najot" ("Najot kitobi"), "Kitob ul- ishorat va at-tanbixot" ("Kursatmalar va nasixatlar kitobi"), "Donishnoma" ("Bilim kitobi"), "Kitob an-insof" ("Insof kitobi") kiradi.

Ibn Sino talqinicha moddiy dunyo Ollox kabi abadiy va doimiy oʻzgarishdadir. U insonning bilish qobiliyati, aql va zakovatini ulugʻlaydi.

Ilm - fanning jamiyat rivojidagi buyuk rolini asoslaydi. U insonlarni adolatli, axloqli, ilm-maʼrifatli boʻlishga undaydi. Ibn Sinoning ayniqsa Sharq tibbiyotining yutuqlarini, tibbiy komusini oʻrganish va tartibga solib berish sohasidagi ishi olamshumul ahamiyat kasb etadi.

Uning asarlari lotin tiliga va u orkali boshqa Ovrupo tillariga tarjima etilgan. Ibn Sinoning O`rta Osiyo madaniyati rivojidadagi urni buyuk va beqiyosdir.

Ibn Sinoning katta zamondoshi uz davrining buyuk komusiy olimi Abu Rayxon Beruniydir (973-1048). U qadimgi madaniyat markazlaridan bo`lgan Xorazmda tug`ilib tarbiya topgan. Feodal urushi tufayli O`rta Osiyo va Eronning qator shaharlarida kochib yurishga majbur bo`lgan, so`ng Urganchda, Jurjonda yashagan, Gaznada uzok yil xizmat qilgan. Xindistonda bo`lgan.

Beruniy 150 ga yaqin turli sohalarga- tibbiyot, riyoziyot astronomiya, astrologiya, jugrofiya, geodeziya, meterologiya, etnografiya, tarix, falsafa, filologiyaga oid katta asarlar va risolalar muallifidir. Shuningdek, olim tomonidan qator xikoyalar, she`rlar ham yozilganligi ma`lum. U O`rta asrda birinchi bo`lib globus yaratdi. Beruniy ilmiy faoliyatining komusiyligi, rang-baranligi kishini xayratga soladi. U arab, fors, turkiy va xind tillarini yaxshi bilgan, uning tadqiqotlari xozirda ham fan uchun muhim manba sifatida uz kimmatini saqlab keladi.

Beruniyning "Xindiston", "Geodeziya", "Farmokognoziya", "Mineralogiya", "Ma`sud konuni", "Utmish avlodlar xotiralari" kabi katta xajmdagi asarlari uzbek, rus tiliga tarjima kilingan. Uning gumanitar bilimlar, arab tili, she`riyati, turli xalqlar etnografiyasi, tarixi, urf-odatlar, kalendari, axloq va axloqshunoslik, falsafaning ayrim masalalari haqidagi risolalari, muloxazalari uz davri ma`naviy madaniyatini o`rganishda beqiyos manbadir.

Ko`rinadiki, bu davrda komusiy olimlar bilan birga ma`lum ilmlar darajasi yoki konkret ilm sohasi bilan shug`ullanib, unda muhim natijalarni qo`lga kiritgan bir qator olimlar ham faol ish olib borganlar. XIII asrda O`rta Osiyoning turli shahar-larida ilm bilan mashg`ul bo`lgan olimlarni sanab utish mumkin. Xakim Termiziy, Ismoil Jurjoniy, Chagminiy, Sam`oniy, Xarakiy, Zamarshaxiy, Narshaxiy, Balxiy, Masixiy, ibn Irok, Faxriddin Roziy, Muhammad Buxoriy, Abduraxmon Marvoziy kabi ko`plab olimlar shular jumlasidandir.

Ismoil Jurjoniy Ibn Sinodan so`ng tibbiyot sohasida fors tilida ko`p jildli asar yozib, zamonasining atoqli olimi bo`lib tanildi.

Ibn Usaybaning "Uyun ul anba" asarida qayd etilishicha, "u keng bilimlarga ega bo`lgan uz yurtida mashhur juda yirik tabib edi, u davolashning ajoyib usullarini bilardi, tibbiyot san`atiga oid kimmatli asarlar uning qalamiga mansubdir". U uzoq umr ko`rib xorazmshoxlar xukmronligi davrida vafot etdi. Manbalarda, kursatilishicha, Ismoil Jurjoniy tibbiyot bo`yicha fors tilida 12 jilddan iborat "Xorazmshoxlar xazinasi" asarini, 2 jildlik "Tibbiyot bo`yicha xotiralar" kitobini yozib qoldirgan.

Manbalarda tibbiyot ilmining bu davrda Movarounnaxr shaharlarida keng rivoj topgani haqida qimmatli ma`lumotlar uchraydi Ibn Sinoning tibbiyot sohasida ustoz bo`lmish Abu Saxl al-Masixiy, moxir va e`tiborli tabib Badriddin as-Samarqandiy, qator asarlar muallifi Najmiddin Samarqandiyning tibbiyot ilmi rivojiga qushgan hissalar kattadir.

Chagminiyning riyoziyet, ayniqsa falakiyotga oid asari "Astronomiyadan qisqacha tanlangan bayonlar" sayyoralar, yulduzlar, ularning harakati haqidagi muhim ma`lumotlar bo`yicha qo`llanma bo`lib xizmat qildi.

Xivada yashagan Xarakiy esa xorazmshoxlar saroyida munajjimlik qilib, falakiyot va jug`rofiyaga oid muhim asar yaratdi. Bu davrda tarixshunoslik, filologiya, adab, axloqshunoslik kabi ilmlar ham rivojlandi.

Umar Xayyom (1048-1131) uzining fors tilidagi utkir she`rlari bilan uz davri madaniy xayotida yorqin iz qoldirgan faylasuf olimdir. U uz falsafiy risolalarida Forobiy va Ibn Sino ta`limotlarini davom ettirdi, riyoziyot, falakiyot, fizika ilmiga oid asarlar yozib Xorazmiy, Beruniy goyalarini rivojlantirdi, kuzatishlari asosida yangicha aniq kalendar ishlab chikdi. U tabiat haqidagi turli etnografik materiallarni uz ichiga olgan, fors tilida yozilgan "Navruznomasi" asarining ham muallifidir. Umar Xayyom uzining fors tilidagi chuqur falsafiy mazmunga ega bo`lgan, xurfikrlilikni targib etuvchi she`rlari bilan O`rta Osiyoga, butun Sharqqa mashhur bo`ldi. Uning ruboiylari shoirlar ijodiga katta ta`sir ko`rsatdi.

Abu Nasr Ismoil ibn Hammar al-Javxariy al-Forobiy. X asrning ajoyib olimi - tilshunos, shoir, filolog. Toshkentning shimolidagi turkiy shaharlaridan bulmish Forobda tugʻilib usib, xalifalik markaziy shaharida uz iste'dodi bilan obru qozondi. Nishopurda vafot etdi. Arab tili va she'riyatini chukur urgandi, uzidan soʻng koʻp shogirdlar qoldirdi. Arab tilida ajoyib she'rlar yozdi. Uni mashhur qilgan asari arab tili va grammatikasiga bagʻishlangan. "Taj al-lugat va sixat al-arabiya" ("Arab tili va lugatining tili"), qisqartirilgan "as-Sixox"dir. Undan xozirda ham madrasa va oliy ukuv yurtlarida arab tilidan muhim oʻquv qoʻllanma sifatida foydalaniladi. Bu asar koʻp qoʻlyozma fondlarida uchraydi.

Javxariy-al Forobiy bundan tashqari yana "Grammatikaga kirish", "Aruz haqidagi kitob" asarlarini yozgan. As-Saolibiy Javxariyning axloq masalalariga bagʻishlangan baytlaridan namunalar keltirgan.

Umar az-Zamaxshariy (1075-1144) Xorazmning Zamaxshar qishlogʻidan boʻlib, asosan gumanitar ilmlar sohasida shuxrat qozongan, bir necha yil Iroq va Arabistonda boʻlgan.

Zamaxshariy uzining arab adabiyotiga oid "Asos ul-baloga" ("Suzga ustalik asoslari"), "Samim ul-arabiya" ("Arab tilining magzi"), "Mukaddimat ul-adab" ("Nafis adabiyotga mukaddima"), "Maqomat" kabi asarlari bilan filologlar ichida mashhur boʻldi.

Zamaxshariyning buyuk xizmatlaridan yana biri uning "Asmou ul-avdiya va-l jibol" ("Vodiy va tog ismlari") jugrofiy lugatidir. Unda Arabiston, Suriya, Misr, Irok, Eron, Xindiston, Ispaniya, Oʻrta Osiyodagi jugrofiy nomlar izoxi beriladi. Bu esa asarning amaliy ahamiyati bexisob ekanligini koʻrsatadi.

Faxriddin Roziy (1148-1210) Eronning Ray shahrida tugʻilib, umrining koʻp qismini Oʻrta Osiyoning Buxoro, Xujand, Marv, Urganch shaharlarida utkazgan, xorazmshoxlar saroyida xizmatda boʻlgan, ilmiy munozaralarda faol ishtirok etgan.

U uz davrining komusiy olimi boʻlib falsafa, mantik, islom, xukukshunoslik, filologiya, tibbiyot sohalarida 150 dan ortik ilmiy risolalar, she'rlar yozgan.

Roziy uz ilmiy faoliyati, xususan uzining ilmiy-falsafiy risolalarida qadimgi yunon olimlari Aristotel, Geraqlit, Epikur, Demokrit asarlaridan, shuningdek, Sharqning mashhur mutafakkirlari Forobiy, Ibn Sino asarlaridan foydalangan, ularga sharxlar yozgan. U uz sharxlarida uzidan avval utgan faylasuflar asarlariga munosabatini bildiradi, ilmni, falsafani ulugʻlaydi. Olimning "Miftax al-ulum", "Nixoyat al-ulum", "Ilm al-axloq" asarlarida olamni bilishning turli yul va usullari, inson doimo uz bilimni orttira borishi zarurligi, bilim xissiyot va aql-tafakkur orkali qoʻlga kiritilishi mumkinligi haqidagi muhim goyalar olga suriladi.

Roziy uzining qator asarlarida mantik masalalariga, tafakkurning qonun-qoidalariga maxsus boblar ajratgan, mantik ilmining inson tafakkuri rivojida muhim rol uynashini maxsus ta'kidlab utgan.

Bu davrning eng buyuk filolog olimlaridan biri Maxmud Koshgariydir. U XI asrda Bolosogunda (hozirgi Tukmok) tugʻilib usdi, uz davrining turli ilmlarini egalladi, Movarounnaxr, Xorazm, Fargona, Sharqiy Turkiston shaharlarini birma-bir kezib chikdi. Turkiy til, turkiy xalqlar etnografiyasi, tarixi, urf-odatleri, ogzaki adabiyotiga oid "Turkiy tillarning naxv(sintaksis) koidalari" hamda "Devoni lugatit turk" (Turk suzlar devoni") asarlarini yozib koldirdi. "Devoni lugatit turk" Istambulda topilib, soʻng bir necha tillarga tarjima etilgan. "Devon" nixoyatda kimmatli manba boʻlib, unda usha davrda keng muzofotda tarqalgan 6 mingdan ziyod turkiy suzlarning arabcha izoxlari, grammatik va dialektik xususiyatlari haqida ma'lumotlar berilgandir. Kitob muqaddimasida asarning yozilish sabablari, tuplangan manbalar tugrisida ma'lumot beriladi. Bu asar tilshunoslikning eng kimmatli namunasi boʻlib, u turkiy tillarning manbalari, tarixi, kiyosiy xislatlarini oʻrganishda, demak, barcha turkiy xalqlarning milliy madaniyat manbalarini aniklashda noyob asar xisoblanadi. U fakat tilshunoslik ilmi uchungina qimmatli bulmay, komusiy ahamiyatga ham egadir. 11 asrda ma'lum boʻlgan ijtimoiy-iktisodiy axvoli, geografik, tabiiy xususiyatlari, urf-odatleri etnografiyasi haqida kimmatli ma'lumotlar beriladi. Asarda xalq ogzaki adabiyotidan namunalar, makol, matal, kushiklar ham keng oʻrin olgan.

Bu davrda gumanitar ilmlar ichida tarixshunoslik keng rivoj topdi. Bizga qadar O`rta asrda arab va fors tillarida yozilgan musulmon Sharqining turli o`lkalari, jumladan O`rta Osiyo va Xurosonning tarixi, madaniy boyligi, alokalariga bagishlangan ko`plab asarlar yetib keldi. Ular orasida O`rta Osiyodan chikkan tarixshunoslarning asarlari salmokli o`rin egallaydi.

Bu qo`lyozma asarlar turli mamlakatlar fondlarida, jumladan O`zbekiston Fanlar Akademiyasi Beruniy nomli Sharqshunoslik institutida ham saqlanadi.

Yuqorida ko`rib utganimiz Muhammad Xorazmiyning arab xalifaligining ilk davriga oid tarixiy asaridan ayrim namunalar bizgacha yetib kelgan.

Beruniyning uz davri madaniy xayoti tarixini aks ettiruvchi asarlari tarixshunoslik uchun ham ajoyib manba bo`lib xizmat kiladi.

Bizgacha yetib kelgan eng qadimiy tarixiy asarlardan biri Buxoro yaqinidagi Narshax kishlogidan chikkan Abu Bakr Muhammad ibn Ja'far Narshaxiyning (899-959) "Buxoro tarixi" asaridir. Bu asar Buxoroning ilk O`rta asrdagi ijtimoiy-iktisodiy axvoli, dini, shaharning arablar tomonidan bosib olinib karam etilishi, shahar xalqining islomga munosabati, xalq kuzgolonlari, Mukanna xarakati kabi masalalarga oid noyob manba hisoblanadi.

Shuningdek, bu asar O`rta Osiyoning ilk O`rta asrdagi tarixi, arablar tomonidan bosib olinishi davriga oid muhim ma'lumotlar beradi.

Bu davrning yetakchi tarixchilaridan yana biri Abu Fayz Bayxakiyni (995-1077) kursatish mumkin. U uzining qator tarixiy asarlari, ayniqsa Gaznaviylar xukmronligi davrini keng aks ettiruvchi arabcha "Tarixi Mas'udiy" asari bilan mashhurdir. (Bu asar ruscha tarjimasida Toshkentda nashr etilgan).

Yana O`rta osiyolik olimlardan Zaxriddin Bayxakiyni (1106-1174) qayd etib utmoq kerak. U astrolog, matematik, tabib, shoir bo`lsa-da, uzining tarixiy asarlari, ayniqsa uz davri madaniy xayotining yirik vakillari haqidagi arabcha "Tatimmat sivon ul xikma" ("Xikmatlarni saqlovchilarga kushimcha") hamda fors tilidagi "Tarixi Bayxakiy" asarlari bilan mashhurdir.

Bu davrda O`rta Osiyoda yashagan tarixshunos Muhammad Nasaviy (1249 yilda tug`ilgan) ning Chingizxon kushinlari tomonidan O`rta Osiyoning bosib olinishi va unga karshi olib borilgan xorazmshoxlar kurashi tarixini yorituvchi " Sulton Jaloliddin Manguberdidining xayot yuli" nomli arab tilidagi asari nixoyatda muhim tarixiy manbadir. Nasaviy Chingizxon kushiniga karshi kurashga raxbarlik qilgan va kurashda ajoyib kaxramonlik kursatgan Xorazmshoxning ugli Jaloliddin Manguberdidining shaxsiy kotibi bo`lgan, uzi ham mugullarga karshi kurashda faol ishtirok etgan, bu tarixiy asar Bokuda Ozarbayjon FAning akademigi Z. Buniyotov tomonidan rus tiliga ugirilgan va sharxlari bilan nashr etilgan.

Yana bu davrda yashab ijod etgan tarixshunos olimlar Abu al-Xasan ibn Muhammad al-Xorazmiy, Arslon al-Abbos al-Xorazmiy, Maxmud an-Nasaviy, Abul Fatx al-Buxoriy, Abu Muzaffar al-Marvoziy as-Samaniy kabilarni hamda ularning turli shahar va davlatlar tarixiga, xususan, Xorazm, Marv, Samarqand tarixiga bagishlangan muhim asarlarini kursatib utish mumkin.

TASAVVUF

Ilk O`rta asrda Osiyodagi so`nggi eng feodal davlati xorazmshoxlar imperiyasi bo`ldi. XII asrning ikkinchi yarmida Saljukiylar, Koraxoniylar hamda boshqa feodal davlatlariga karshi kurashda Xorazm davlati mustaxkamlanib yerlar kengayib bordi va shu asrning oxirida Yaqin va O`rta Sharqdagi eng yirik va kuchli davlatga aylandi. Asta-sekin Xorazmshox davlati tuxtovsiz urushlar natijasida Arabiston, Kavkazorti, Hindiston, Xitoy chegarasigacha bo`lgan katta xududni uziga buysundirgan kuchli imperiya bo`lib tanildi. Xorazmshoxlarning markazi bulmish Urganch (Kuxna Urganch) bu davrda Sharqning eng guzal, boy va rivoj topgan shaharlariga aylandi. Shaharda 50 dan ortik xunarmandchilik rivoj topdi, kurkam kurilishlaramalga oshirildi, katta bozorlar vujudga keldi, savdo-sotik rivoj topdi. Shaharning katta daryo Amuning yonida joylashuvi suv yullarining rivoji uchun keng imkon yaratdi. Shahar Amuning xar ikki kirgogini egallagan bo`lib, nixoyatda gavjum bo`lgan va Sharqning Bagdod, Andalus (Ispaniya), Nishopur,

Utror, Xiro, Bolosogun, Gazna kabi shaharlar bilan savdo alokalari keng avj olgan edi. Xorazm viloyatida Xiva, Xushmisan, Dargon, Savakan, Kos, Xazorasp, Nuzkat kabi kichik shaharchalar ham keng rivoj topdi. Bu davrda xorazmshoxlar davlatining boshqa yirik markaz shaharlari ham-Buxoro, Samarqand, Kesh (Shaxrisabz), Taraz, Xujand, Termiz, Axsiket, Uzkend, Ush, Nasab, Marv, Balx, Kunduz kabilar ham rivoj topdi.

Bu davrda xorazmshoxlar shaharlarida, xususan ularning markazi Urganchda ilm-ma'rifat, dinshunoslik, madaniyatning turli tarmoklari rivoj topdi.

Mashhur shoir olimlar, tarixchi va faylasuflar ham yashab ijod etdilar. Bu haqda yuqorida tuxtab utdik. Lekin bu madaniy kutarilish uzok davom etmadi.

XIII asrning birinchi choragida O`rta Osiyo tarixi, madaniyati, kelajagi uchun fojeali rol uynagan tarixiy voqea sodir bo`ldi-bu mugullar xujumi va O`rta Osiyoning Chingizxon kushinlari tomonidan bosib olinishi, talon-toroj etilishi, iktisod, madaniyatning tushkunlikka tushishi bo`ldi.

XIII asrning boshlarida Chingizxon boshlik mugullarning kuchli davlati vujudga keldi. Muhammad Xorazmshox O`rtasidagi alokalar savdo-sotik, karvonlar yuborishdan boshlangan bo`lsada, 1218-20 yillar atrofida ular orasida nizo kuchaydi va Chingizxon katta kushin bilan Xorazmshox davlatiga yurish boshladi. Alauddin Muhammad Xorazmshox uz askarlarini katta shaharlarga taksimlab, Chingiz askariga qarshilik kursatishga xarakat kildi.

Lekin mugullar birin-ketin Movarounnaxr shaharlarini zabt etib, talon-toroj kildilar, olim-fozillar kuvginga uchradilar, bozorlar vayron kilindi. Zamonasining ayrim mashhur davlat arboblari, shoir-mutafakkirlari tashki boskinchilarga qarshi Vatan ximoyasi uchun kurashda kurbon bo`ldilar.

Movarounnaxr, Xurosonda, mugullar xukmronlik qilgan davr-Temuriylar davlatining vujudga kelishiga kadam bo`lgan davr (XIV asrning oxirlari) din va islom dini ta'limoti asosida musulmon Sharqida keng tarkala boshlagan tasavvuf ta'limotini kuchayishi, keng yoyilishi bilan xarakterlanadi.

Bu davrda tasavvuf (sufizm) ta'limotlari madaniyatning, ma'naviyatning barcha tomonlariga kirib bordi. Xukmronlik urnini egalladi. Din xukmron mafkura bo`lishi bilan birga madaniyatning hamma sohasida uz ifodasini topdi, ma'naviyatning ko`p shaqllari islom, tasavvuf aqidalarini e'tirof etibgina kolmadi, ularni targib etishda, ta'lim tarbiyani ular asosida olib borishda faol katnashdi. Ma'lumki, islom vujudga kelgandan so`ng uning talkinida ikki katta oqim vujudga keldi: sunnizm va shiizm.

Sunnizmda Qur'on bilan birga Muhammad paygambarning aytganlari va kilmishlari haqidagi ma'lumotlar ham (bular xadislarni tashkil etadi)dinning asosiy manbai deb xisoblanadi. Shiizm xalifa Ali xoqimiyati tarafdorlaridan ham sunnizmga mansubdir. Asosan shu sunniyliknegizida islomda VIII-IX asrlarda tasavvuf oqimi vujudga kelib, uni ayrim adabiyotlarda islom falsafasi deb yuritadilar. Tasavvuf islom asosida shaqllangan diniy-falsafiy oqim bo`lib, unda qadimgi yunon ta'limoti-neoplatonizm, iudaizm, xristianlik, zardushtiylik, ayniqsa buddizmning ta'siri seziladi. Uning asosiy asketizm, ya'ni bu dunyo lazzatlaridan voz kechish asosida Olloxga yetish, uni bilish, u bilan birlashish yulini kidirish yotadi. Sufizm Qur'on va shariat talab etgan diniy aqidalarni, talablarni albatta bajarish, suzsiz uzini xudoning kuli deb bilish, ma'lum diniy qoidalarga uz shaxsiyatini shubxasiz buysundirishni qabul etmaydi, shaxsiy erkinlik, uz xoxishi bilan tozalanib Olloxga ruxiy ma'naviylikka singish orkali erishishga asoslanadi. Bu yulda sufiylikka berilgan ortodoksal islom ruxoniylari boshliklarining talablariga rioya etmaganliklari uchun ayrim xollarda koralanganlar, kuvgin kilinganlar, jazolanganlar.

Tasavvufda ruxni kamolotga va uning so`nggi maksadi-Olloxga erishuv yullari 4 boskichdan iboratdir: Birinchi boskich shariat deb atalib, bunda avvalo shariatning barcha talablarini bajarish va unga buysunish talab etiladi. Ikkinchi boskich tarikat bo`lib, bunda murid uz shaxsiy istaqlaridan voz kechib, uzini pir ixtiyoriga topshirish kerak. Uchinchi bosqich ma'rifat bo`lib, bunda sufiylar xalqdan olingan juda ko`p turkiy tilidagi makol va koinotning birligi xudoda mujassam bo`lishini, olam xudoning emanatsiyasidan, nurlanishidan vujudga

kelishini, yaxshilik va yomonlikning nisbiyligini aql bilan emas, kalb bilan anglab olishlari kerak buladi. Turtinchi boskich haqiqatdir. Bunda sufiy shaxs sifatida tugab, xudoga-muljallangan haqiqatga yetishi, Olloxga singib ketishi va natijada abadiylikka erishuvi zarur. Bu jarayon ma'lum davomli vaqtni talab etadi. Maxsus ruxiy, jismoniy xarakat, faoliyat-siginish, ibodatlar, ohanglar yordamida amalga oshiriladi. Sufizm tarafdorlari dastlab moddiy boylikka ega bo'lish va unga intilishni koralab, haqiqiy boylik ma'naviy ruxiy boylikda deb xisoblaganlar. Tasavvufning ijtimoiy bazasi, bu – shahar hunarmandlari, mayda savdogarlar bo'lib, IX-X asrlardayok Irok, Eronda bu ta'limotning yirik vakillari vujudga kelgan. Xalloy (859-922), Bistamiy (IX asr), Junaydiy (vafoti 910) shular jumlasidandir. Tasavvufning nazariy va amaliy tomonlari bor. Amaliy tomoni bevosita Ollohga erishuv jarayonidir. Bu yulda sufiylik koidasini bajargan holda juda ko'pchilik tasavvufga ishonganlar, mashgul bo'lganlar. Bu jarayonda shayxlar va muridlar paydo bo'lib, sufiylikka berilganlar shayxlardan ta'lim olganlar, ularga murid bo'lib tushganlar. Oldinrok amaliy sufizm, sufiylikning nazariy masalalari bilan shugullanish esa so'ngrok vujudga kelgan. Sufizm nazariyotchilari uz davrining bilimni puxta egallagan, ilmlardan xabardor bilimdon-mutafakkir kishilar bo'lganlar. Bulardan Abdul Xomid Gazzoliy (1058-1116), Suxravardi (1155-1191), Ibn Arabiy (1165-1240) kabilarni kursatish mumkin. Ular sufizمنى nazariy masalalari bo'yicha qator risolalar yaratganlar.

Ibn Arabiy ayniqsa sufizm nazariyasini ishlab chikishga katta xissa kushdi. Andalusiyada tug'ilib, uz umrini turli musulmon shaharlarni kezib, bilimli kishilar bilan mulokotda bo'lishda utkazdi. U sufizمنى eng yirik nazariyotchisi bo'lib, 300 dan ortik asarlar muallifidir. Ibn Arabiyning, ayniqsa "Fusul al-xikam", "Futuxat al-makkiya", "Tarjimon al-ashvak" kabi asarlarida sufiy-mutaffakir sifatida olam va xudoni birligi, unga intilish, "ichki tajriba" yordamida erishish, Qur'onning ramziy xarakterga egaligi haqida ta'limotlar asoslab berilgandir. Uning, ayniqsa sufizm kosmogoniyasini xar tomonlama ishlab chikishdagi xizmati maxsus ta'kidlab utiladi.

Sufiylik nazariyasi dastlab arab xalifaligi, musulmon nazariy fikrlarining markaziy shaharlari Bagdod, Damashk, Madina kabilarda ishlab chiqilgan va keng yoyilgan bo'lsa-da, u Sharq o'lkalarida keng tarkaldi.

Sufiylar tuxtovsiz sayoxatda bular, turli shaharlarda ilmli, dinga berilgan shaxslar bilan uchrashuvlar, mulokotlar utkazar edilar.

Sufiylik ta'limoti xukmron mafkuradan fark qilgani xolda Olloxni haqiqat deb talkin etgani, jannat-duzaxni inkor qilgani, barcha dinlarni teng deb bilgani, haqiqatga erishish yulida umumiy diniy aqidaga emas, shaxsiy tajriba-intuitsiyaga asoslangani, islom diniy koidalariga befark karagani uchun ortodoksal islom raxbarlari tomonidan ayrim xollarda ta'kib kilindi, ayrim sufizm mafkurachilari jazolandi ham, Bistamiy koralandi, Xalloy ulim jazosiga xukm kilindi. Xurosonda Aynul Kuzzat ham uldirildi. Sufiylar xalqqa yaqin bo'ldilar, uni ximoya etishga xarakat kildilar. Movarounnaxrga mugullar xujum qilganda ayrim sufiylar uning ximoyasi yulida kurbon bo'ldilar.

Sufiy ta'limotlari panteizm yoki Ollox va insonning birlashuvi, olamning (moddiy va ruxiy) yagonaligi, hammaning tuxtovsiz haqiqatga intilishi zarurligi ta'limoti bilan uz davri ilgor falsafiy ta'limotlariga yaqin turdi va bu bilan xurfikrli-likka ham xizmat kildi, aqidachilik, xukmron mafkuraga zarba keltirdi. Turli sufiy mualliflarining asarlarida bu ta'limotga turlicha yangiliklar, anikliklar kiritib borildi va u musulmon Sharqida ortodoksal islomdan so'ng eng rivojlangan, keng tarkalgan ta'limotga aylandi. Uning 15 ga yaqin asosiy yo'nalishlari-maktablari musulmon mamlakatlarida tarkalgandir.

X asrdan boshlab sufizm goyalari O'rta Osiyo shaharlarida ham tarkala boshladi. Masalan, Xalloy turli o'lkalar qatori Xuroson va Movarounnaxrda uz ta'limotini targib etdi. Sufiylik asarlari aksari arab, so'ng fors tillarida yoyildi, O'rta Osiyoda so'ngrok turkiy tillarda ham badiiy asarlar shaqlida vujudga keldi.

Kadariylik-kadariya tarikotining asoschisi Abdulkodir Jiloniy bo'lib, u 1077 yilda tug'ilgan, Bagdodda ta'lim olgan. Akademik V. V. Bartold bu ta'limot haqida Abdulxolik-

axloqiy karashlar targ'ibotchisi va uning maqsadi odamlar oldida duzax eshigini yopib, jannat eshigini ochish, kishilarni o'zaro hurmat, muxabbatga undash edi, deb baxo beradi. Kadariya ta'limoti Turkiya, Afgoniston, Pokiston, Jazoir kabi mamlakatlarda ham tarkalgan".

O'rta Osiyo muzofotida birinchi vujudga kelgan yirik sufiylik oqimi yassaviylikdir. Bu oqimga Axmad Yassaviy (1105-1165) asos solgan. Yassaviy Yassi (Turkiston) shaxrida ruxoniylar oilasida tug'ilgan. Uning otasi Ibroxim Yassi Sayram shaxrida uzok yil shayxlik qilgan va ko'p muridlarga ega bo'lgan.

Yassaviy Buxoroda mashhur mutaassif (sufiy) Yusuf Hamadoniydan sufiylikning asoslarini urganadi, uning ulimidan so'ng urniga xalifa bo'lib koladi, so'ng uz yurti Turkistonga kaytadi. Yassaviy ta'limoti turkiy tilda yozilgani uning "Devoni xikmat" asarida bayon etilgan bo'lib, u kuchmanchi va utrok turkiy xalqlar O'rtasida sufiylik ta'limotini targib etishda muhim ahamiyat kasb etgan. Uning ta'biricha, baxtsizlikka, chidamlilikka, ogir xayotga urgangan odam haqiqiy sufiy bula oladi va Xudo vasliga erishadi; bu dunyo bevafo. Yassaviy goyalari O'rta Osiyoning turli shaharlarida uning shogirdlari tomonidan keng targib kilindi. Shulardan biri Sulaymon Bokirgoniy bo'lib (vafoti 1192 yilda) u uzining turkiy tilda yozilgan "Bokirgon", "Oxir zamon" asarlarida asosan sufizm, yassaviylikni targib qilgan.

O'rta Osiyoda shaqllangan eng yirik sufiylik oqimlaridan biri kubraviyadir-unga Xorazmda XIII asrning boshlarida Najmiddin Kubro (1145-1221) asos solgan va so'ngrok u O'rta va Yaqin Sharqning boshqa o'lkalariga ham keng tarkalgan. Xivada tug'ilib sufiylik ta'limotini Misr, Tabriz, Hamadon shaharlarida egallagan. Kuxna Urganchda uz ta'limotini rivojlantirib, shu yerda sufiylik oqimiga asos solgan.

Mugullar xujumi davrida uz muridlari bilan shahar ximoyasida faol ishtirok etib kurbon bo'lgan. Kubro bilishning maxsus yulini rivojlantirib, sufizm rivojiga katta xissa kushgan. U uzining qator risolalarida Kubraviya birodarligi (orden) ning koidalarini ishlab chikkan. Bu koidalar sufiylikning ham nazariy, ham amaliy masalalarini uz ichiga oladi. Kubraviya oqimi O'rta Osiyo, Afgoniston, Shimoliy Xindiston, Eron shaharlarida tarkaldi va mayda sufiylik oqimlarini vujudga kelishiga sababchi bo'ldi. Bu oqimlar Xindistonning xatto Dexli, Bixar shaharlarining madaniy xayotiga muhim ta'sir ko'rsatdi.

Butun musulmon Sharqida eng keng tarkalgan yirik sufiylik oqimi nakshbandiylik ham O'rta Osiyoda shaqllandi. Nakshbandiylik ta'limotining boshlangich kO'rtaqlari buxorolik mashhur tasavvuf-chilar Yusuf Hamadoniy hamda Abdulxolik Gijdu-voniy ta'limotlarida olga surildi. Lekin bu shaqllanayotgan yangi sufiylik oqimi Baxovuddin Nakshband (1318-1389) tomonidan kiyomiga yetkazildi va uning nomi bilan ma'lum bo'ldi.

Baxovuddin Nakshband Buxoroga yaqin Kasri Xinduvon kishlogida xunarmand oilasida tug'ilib usdi. Sufiylik ta'limotini asosan Buxoroda, O'rta Osiyo shaharlarida Sayid Amir Kuloliy, Orif Diggironi, Qosimshayx va Xalil otalardan urgandi. Uz ta'limotida yassaviylik va gijduvoniy ta'limotlarining ayrim tomonlarini birlashtirdi.

Naqshbandiylik ta'limotida Ollox yagona, ikki xil olam yuq, shuning uchun shu moddiy olam talablariga moslashib yashamok, uning lazzatidan baxramand bulmok, faol mehnat kilib, boylikka intilmaslik lozim; u mistikaga berilishini targib etmaydi, Nakshbandiylik 4 prinsip asosida xayot kechirishni tavsiya etadi.

1.Xilvatdar anjuman - insonlar bilan doimo mulokotda, birgalikda jamoada yashamok, ular dardiga ham, kuvonchiga ham teng sherik bulmok, boylikka intilmaslik, kambagallarga yordam bermoq.

2.Safar dar vatan- xayotni o'rganish, safarda, sayoxatda bo'lish, tabiatdan zavklanish, xis-tuygudan voz kechmaslik, bilimni oshirish, gam-alamga xadeb berilavermaslik.

3.Nazar dar kadam -xar bir kadamni uylab bosish, foydali ishlar kilish, yaxshilikka mehnat bilan intilish, bekorga vaqtni utkazmaslik.

4.Xush dar dam -inson bu olamning yakuni, u xar doim tabiatdan, uning noz-ne'matlaridan foydalani-shi, baxra olishi, kiyinchilikdan kurkmasligi, uz maksadlarini ruyobga chikarishi lozim.

Xullas, nakshbandiylik insonni ulug'laydi, uning xayotiga, tabiatan faol munosabatda bo'lishini targ'ib kildi. U bunday ta'limotlari bilan, bir tomondan, xukmron din arboblarning noroziligini, ikkinchi tomondan, axolining ijobiy munosabati, xayrixoxligini kuchaytirdi. Bu ta'limot Baxovuddindan so'ng uning shogirdlari Alautdin Attor (vafoti 1440 yil) va Muhammad Porso (1345-1420) tomonidan ma'lum tartibga solindi. Mugullar xukmronligi davrida nakshbandiylik goyalari O'rta Osiyo madaniy xayotida xalqni uyushtirishda, uni mustaqilka chorlashda ijobiy rol uynaydi.

Temuriylar davrida Abduraxmon Jomiy, Xuja Axror, Alisher Navoiy tomonidan yanada oliy boskichga kutarildi. XV asrning ko'p shoir, mutafakkirlari bu goyani kullab-kuvvatladilar. Nakshbandiylik ustun ta'limot sifatida 2-3 asr davomida nafakat O'rta Osiyoda balki Hindiston, Turkiya, Eron, Kavkazorti, Arab mamlakatlarida ham keng tarkaladi. O'rta Osiyoda turli sufiylik oqimlarining ta'siri XIX asrga kadar davom etganini kuramiz. Sufizm musulmon mamlakatlari xayotida muhim ijobiy-mafkuraviy va madaniy rol uynadi. U badiiy adabiyot, falsafa, musiqa, maorif, ta'lim-tarbiyaga katta ta'sir ko'rsatdi, turli mamlakatning ijtimoiy-siyosiy xayotida shubxasiz sunmas iz koldirdi.

Ortodoksal islom, xukmron diniy xoqimiyat, yirik din arboblari xar doim sufiylik ta'limot-lariga, tasavvuf oqimlari va birodarliklari, sufiylik markazlariga nisbatan salbiy munosabatda bo'ldilar, ularga xurfikrlilik manbai, xukmron diniy aqidalar obrusiga zarar yetkazuvchi faoliyat manbai deb karadilar, ayrim xollarda ularga karshi koralash, kuvgin qilish, jazolash usullarini ham kulladilar.

1219-20 yillarda uzining eng rivoj topgan davrida Xorazmga Chingizxon boshlik mugullar bosib kirdi. Bu davrda xorazmshoxlar davlatidan ancha Sharqda-Mugulistonda Chingizxon davlatidan ancha Sharda – Mugilistonda Chingizxon davlati shaqllandi. U tez orada mugullarni birlashtirib, qator janglarda yengib Xitoydan mustakil bo'lib ajrab chikdi. Chingizxon davlati tez rivojlanib kushni davlatlar, xususan garbiy kushinlar xisobiga uz yerini kengaytira bordi va tez orada imperiyaga aylandi. 1218 yilda mugullar otradining Xorazmshox kushni bilan birinchi tuknashuvi bo'lib utdi.

Tarixchilar Chingizxon xujumining qator sabablarini keltirdilar, bular ichida Xorazmshoxlar davlatining usha davrdagi boshligi Muhammad Xorazmiyning mugullarga nisbatan tutgan ichki notugri siyosatini ham kursatib utadilar. Chingizxonning ugli Juji boshlik mugullar 1219 yili Xorazmshoxlarning shimoliy kal'alaridan bulmish Utror shahariga xujum boshlaydilar. Kal'aning yengilishini kutib turmay ular kushinlarining ma'lum kismini koldirib Movarounnaxrga bostirib kiradilar. O'rta Sharqda eng katta imperiya va ko'p sonli kushinga ega bo'lgan Xorazmshox mugullar xujumiga karshilik kursatishni shaharlarning uziga topshirib kuydi, xar bir shahar uzini ximoya etdi. Mugullar 1219-1221 yillar davomida Movarounnaxrning qator shaharla-rini bosib ola boshladilar, jumladan Utror, Shosh, Buxoro, Samarqand, Termiz, Marv kabilarni qo'lga kiritdilar. 1220 yilda Muhammad Xorazmshox vafot etdi va taxtni uz ugli Jaloliddin Manguberdiga qoldirdi.

Mugullar tomonidan O'rta Osiyo, umuman Xorazmshoxlar davlatining bosib olinishi xalqimiz xayetidagi eng fojiali voqealaridandir. Zur xarbiy maxoratga ega bo'lgan jasur Jaloliddin boshchiligida mugullar xujumiga karshi kurash esa O'rta Osiyo xalqlari tarixida eng yorkin iz koldirdi.

Mugullar bosib olgan joylarini xarob kildilar, axolini uldirdilar, shaharlarni talon-toroj etdilar, gullab turgan mamlakatni vayronaga aylantirdilar.

Jaloliddin Manguberdini qator janglardan so'ng 1231 yilda kurdlar yurtida kurbon bo'ldi. Mugullar boskinchiligi O'rta Osiyoning IX-XII asrdagi yuksak madaniy rivojiga katta zarar keltirdi.

XULOSA

O'rta Osiyoda feodalizm munosabatlari va feodalizm madaniyati V asrlardan XIX asrning oxiri-XX asr boshlarigacha davom etgan va deyarli 15 asr davomida rivojlangan va xukmron

bo'lib kelgan bo'lsa, shu un besh asrlik madaniy tarixning belgilovchi mazmuni, yo'nalishi, IX-XIII asrlar orasidagi madaniy yuksalishdir deb kursatish mumkin. Bu davr madaniyati nixoyatda taraqqiy etgan bo'lib, oktabr inkilobiga kadar O'rta Osiyo feodalizm madaniyati rivojining boshqa davlatlariga nisbatan uz darajasi, yetukligi jihatidan eng yukori boskichni ifodaladi, deb baxo berish mumkin.

Mazkur madaniy yuksalish feodal munosabat-larining, xususan, feodal boshqaruvining markazla-riga aylangan shaharlarning u yerdagi xunarmandchilik, savdo-sotik alokalarining tezlik bilan rivojlanishi asosida vujudga keldi. Bu rivojlanish esa O'rta Osiyoning arab xalifaligiga kushilishi, keng savdo-sotik alokalariga kirishuvi, islomning tarkalishi natijasida yanada avj oldi.

Avvaldan mavjud bo'lgan va O'rta Osiyoning Garbidan Sharqigacha kesib utgan hamda qator shaharlarni ham uz ichiga olgan mashhur Ipak yuli mavkeining yanada kuchayishi ham madaniy rivojlanishda muhim rol uynadi. Movarounnaxr va Xurosonning qadimiy boy madaniyati uning arab xalifaligida, butun musulmon Sharqidagi rolini, madaniy ravnaqida yetakchi o'rin tutishini ta'min-lashda muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Boy madaniy merosdan foydalanishning obyektiv ijtimoiy sharoitlari vujudga kelishi bilan ma'naviy ravnakni tezdin yuzaga keltirishda muhim omil, manda bo'lib xizmat kildi. Shu bilan birga turli o'lkalarni uz ichiga olgan musulmon Sharqida ularga tusik bo'lgan oldingi goyalar bartaraf etilib, islom tarkalgan turli yurtlar, mamlakatlar madaniyatining o'zaro ta'siri, munosabati kuchaydi, avj oldi. Bu o'zaro madaniy-ma'naviy alokalar islom mafkurasiga asoslangan boshqa xalqlarni ham uz ta'siriga oldi.

Turli xalqlar, o'lkalar erishgan utmish va uz davri madaniyatining rang-barang boyliklaridan foydalanish madaniyat, ma'naviyat sohasidagi tasavvur, fikr, bilimlarning nixoyatda tez boyib ketishiga hamda ularni tanlab, eng kimmatisini, haqiqiysini uzlashtirishga olib keldi. Bu bilimlar islom diniy aqidalari va ta'limotlarini ham bilimning, ilmiy tasavvurning bir ko'rinishi sifatida uz ichiga singdirib yubordi. Dunyoviy ilmlar va diniy, iloxiy tasavvurlar bir butun xolda kabul etilib, insonlar, dinning uzi ham ilmiy kategoriyalar asosida tushunti-rilib, ular ayrim mutafakkir olimlar asarlarida keng o'rin egalladi. Tabiat xodisalarini, real obyektiv jarayonlarni o'rganish, inson xis-tuygusi, ichki dunyosi, xulk-odobini, o'zaro muomalasini yuksak darajasiga kutarish, komil inson masalasi san'at, adabiyot, insonparvar ilmlarning oliy predmetiga aylandi.

Bu davrda ilm, san'at, adabiyot, diniy naza-riyalar, siyosat, xulk-odobshunoslik, tarixshunoslik, xullas, ma'naviy madaniyatning turli sohalari bo'yicha ijod etib, uz davri va kelajak uchun katta naf keltirgan muhim, olamshumul yutuqlarni qo'lga kiritgan Buxoriy, Termiziy, Xorazmiy, Marvoziy, Mukaffa, Djoxiz, Forobiy, Ibn Sino, Maariy, Firdavsiy, Rudakiy, Saolibiy, Beruniy, Zakariya Roziy, Kindiy, Mutanabbiy, Axmad Yugnakiy, Maxmud Kosh-gariy, Zamaxshariy, Margiloniy, Tabariy, Narshaxiy, Bayxakiy, Jobir ibn Xayyan, Yassaviy singari qator olim-mutafakkirlar nomini kayd etib utmok lozim.

Bu davr musulmon Sharqida, jumladan O'rta Osiyoda uzak asrlar butun feodalizm davri madaniya-tining rivojini belgilab berish bilan birga uning yutuqlari uchun yuksak mezon yaratildi. O'rta Osiyoda, masalan, feodal munosabatlar va feodal madaniyati XIX asr boshlariga kadar rivoj topgan bo'lsa-da, uz kursatkichlari, yutugi jihatdan bu davr madaniyatini qadriyatlariga darajasiga kutarila olmadi.

Musulmon Sharqida IX-XII asrlar madaniyati uz mazmuni, moxiyati, tarixiy rivojlanishdagi urni, mavkei jihatidan Ovrupo mamlakatlaridagi XVI-XVII asrdagi uyg'onish madaniyatiga tugri keladi. Lekin albatta ularni tenglashtirish noo'rindir. uyg'onish madaniyatlari Sharq va Ovruponing turli sharoitlarida uzida uziga xos xislatlarini ifodaladi. Ovrupodauyg'onish madaniyati feodalizm munosabatlari va madaniyatining yangi ijtimoiy-ma'naviy talablariga javob berolmasligi va yangi extiyojlarini kondirishga bo'lgan intilishini natijasiga vujudga kelib, yangi ijtimoiy munosabatlar, burjua munosabatlari va burjua madaniyatining rivo topishi bilan yakunlanadi.

VIII- IX asrlarda musulmon Sharqi, xususan arab xalifaligi markazida, Yaqin Sharqda feodalizm tez rivojlandi, bu rivojlanish xalifalikning boshqa rejalariga ham ta'sir ko'rsatdi.

O'rta Osiyodagi uyg'onish madaniyati oldingi ilk feodalizm madaniyati ma'naviy darajasidan farkli ularok, feodalizmning tez rivoji, arab istilosidan kutulgan yerli mustakil feodal davlatlarining (Somoniyalar, Gaznaviyalar, Koraxoniylar, Xorazm-shoxlar davlatlari) rivoji bilan bog'liq yangi ehtiyojlar asosida shakllandi. U ijtimoiy jihatdan yangi rivojlangan bosqichga kutarilish talablarini, imkoniyatlarini uzida ifodaladi, lekin bu rivoj topgan feodalizmdan so'ng yangi burjua munosabatlari emas, tushkunlik davri vujudga keldi.

Biz bu davrning uyg'onish madaniyatining xarakterli tomonlari sifatida quyidagi xislatlar, belgilarni kursatishimiz mumkin:

- dunyoviy ilmlarga intilish, din va diniy bilimlarni jamiyat, insonlar manfaati nuktai nazaridan talqin etish;

- turli xalqlarning madaniy - ma'naviy merosi, utmish madaniy qadriyatlaridan (arab, eron, yunon madaniyati boyliklari) foydalanish;

- tabiatni, mavjud xayotni, mavjudotni o'rganishga kizikishning kuchayishi, uning sirlarini ochishga va undan foydalanishga intilishning ortib borishi, shu munosabat bilan tabiatshunoslik ilmlarining rivojlanishi;

- bilishda aqlni mezon deb bilish, aqliy bilish, ratsionalistik usul, ilmiylik rolining oshib borishi;

- insonga muxabbat, uning axloqiy, aqliy xislatlarini, kobiliyatlarini o'rganish va fazilatlarni ochib berishga intilish, mantiq ilmiga katta e'tibor berish, komil insonni tarbiyalash, yetuk fozil jamoa haqidagi fikrlarni asoslab berish;

- diniy tasavvur, diniy ta'limotlar rivojida diniy-axloqiy mavzuning ustunligi, inson xulki, manfaatlarining diniy goyalarida yetakchi mavzuga aylanishi, ichki ma'naviy kamolot, Olloxga subyektiv ichki mukammallashuv, ma'naviy-ruxiy kutarilish, yuksalish yordamida erishuv va uning sifatlariga muayassar bo'lishga karatilgan faoliyat:

- ogzaki va yozma suzga katta e'tibor, uning ijtimoiy-axloqiy kudratini kuylash, ta'riflash, she'riyat, filologiya, badiiy madaniyatning yuksak rivoji, suz san'ati, ritorika bilan shugullanish madaniylikning muhim belgisiga aylanib borishi. Bu xislatlar usha davr ilgari ma'naviyatning xarakterli xususiyatiga aylandi.

Quyidagi xislatlar O'rta Osiyo hamda Yaqin Sharqdagi uyg'onish madaniyatining boshqa region, xususan O'zbekistondagi uyg'onish madaniyati mazmuni bilan yaqinligini, o'xshashligini kursatadi.

Umuman kaysi regionda bulmasin, quyidagi xislatlar uyg'onish madaniyatiga, jumladan O'rta Osiyo va Yaqin Sharqdagi uyg'onish madaniyatiga xosligini kurish mumkin:

- 1.Uyg'onish madaniyati madaniy rivojlanishning yukori darajaga keskin utish jarayonini uz ichiga oldi va nazarda tutadi.

- 2.Uyg'onish madaniyati, birinchi navbatda, shahar madaniyatining yuksalishi, shaharning jamiyat xayotidagi ijtimoiy - iktisodiy, siyosiy - ma'naviy rolining kuchayib ketishi bilan uzviy bog'liq, bo'lib shu jarayonni o'z ichiga oladi. Shahar madaniyatining rivoji, bu qurilish ishlari, savdo - sotiq, hunarmandchilik, ta'lim-tarbiya markazlari, kitob yozish, kitobxonlik, ilmxonlik, yozuvining rivoji kabilarni nazarda tutadi.

- 3.Uyg'onish madaniyatining vujudga kelishi ijtimoiy jihatdan feodal munosabatlarini rivoji davriga tugri keladi. O'zbekistonda bu burjua ishlab chikarish munosabatlarining shakllana borishi bilan yakunlansa, musulmon Sharqida feodal ishlab chikarishining yukori bosqichlariga kutarilishi bilan boglangandir. Bu davrda kishlok xujaligi, savdo-sotik, xunarmandchilik, pul munosabatlari avj oladi.

- 4.O'zbekistonda, Yaqin Sharq hamda Movarounnaxr va Xurosonda siyosiy jihatdan uyg'onish davri feodal munosabatlari va tashki alokalarining rivojiga, ma'lum jihatdan milliy belgilarga asoslangan mustakil, yirik feodal davlatlarining vujudga kelishi, tashkil topishi bilan bog'liq bo'ldi.

Uygʻonish davri Xorun ar-Rashid, Ma'mun kabilar boshchiligida arab davlatining rivoji, Oʻrta Osiyo va Xurosonda xalifalik ta'siridan kutulish, mustaqil uchun olib borilgan kurashlar natijasida yerli fors-tojik va turkiy an'analarga tayangan milliy ijtimoiy jamoa, davlatining boshlangichi bulmish Somoniylar, Xorazmshoxlar, Qoraxoniylar, Gaznaviylar, Saljukiylar feodal davlatlarining vujudiga kelishi bilan xarakterlanadi. Bu jarayon, uygʻonish madaniyatlari shaqllanishining debochasi, boshlanishi boʻldi. Bu madaniyatlar rivojining muhim natijasi sifatida tojik va turkiy tillar milliylik xislatlarga ega boʻlib, adabiy til sifatida shaqllandi. Shu tillarda badiiy ilmiy asarlar vujudga keldi.

Ovropoda ham XIV-XVII asrdagi uygʻonish madaniyatining rivoji ilmiy yagona adabiy til-lotin tili bilan bir qatorda turli milliy adabiy tillarning mustakillashuviga olib kelgan edi.

5.Ma'naviy, goyaviy jihatdan Sharquygʻonish madaniyati, falsafasi, ijtimoiy fikri utmish hamda kushni oʻlkalar, xalqlar madaniyati merosidan keng foydalanish, oʻzaro madaniy alokalarning kuchayishi, keng ma'nodagi vorislik, turli madaniy boyliklarni korishuvi, koʻp yangi madaniy an'analarning tugilishi, shaqllanishi va rivoji asosida taraqqiy etdi. Xususan arab, fors,qadimgi yunon, xind, turkiy madaniyati boyliklari yangi davr talabi asosida yangicha madaniy yuksalishni vujudga keltirdi.

6.Ovropo va Yaqin Sharq hamda Oʻrta Osiyodagi uygʻonish davri ilmi rivojida umumiy meros-qadimgi yunon ilmiy falsafiy merosining roli nixoyat muhimdir. Musulmon Sharqida mazkur meros qadimgi Sharq xalqlari-Misr, Mesopotamiya, Eron, Xindiston, Xitoy madaniy merosidan foydalanish bilan boglangan.

Ovropoda esa yunon ilmiy-falsafiy merosi qadimgi yunon mutaffakkirlari Aristotel, Sokrat, Galen, Evklid kabilar asarlarining avvalo arab tilidagi tarjimasi orkali ma'lum boʻldi. Italiya, Ispaniya kabi mamlakatlarda qadimgi yunon ilmiy-falsafiy merosdan foydalanish arab tilida yaratilgan umumiy ilmiy merosdan, jumladan uning muhim kismi bulmish ilk Oʻrta asrda Oʻrta Osiyoda shaqllangan va asosan arab tilida yaratilgan ilmiy-falsafiy merosdan foydalanish bilan uzviy boglanib ketgan edi.

7.Uygʻonish madaniyati, jumladan Yaqin Sharq hamda Oʻrta Osiyoyugʻonish madaniyatining asosi uning insonparvarlik xarakteridir: inson, insoniy aql, xis-tuygu, inson ma'naviy boyligini egallash, uni Oʻrta asrchilik ma'naviy bikikligidan kutultirish va yana boyitish, yuksaltirish masalalari uygʻonish madaniyatining markazida turadi.

Oʻrta Osiyo uygʻonish madaniyatini ikki bosqichga boʻlish mumkin:

a)X-XII asrlar hamda b)XIV-XV asrlar madaniyati.

Mugullar istilosi Oʻrta Osiyodagi madaniy kutarinkilikka katta zarba berdi, lekin mugullar istilosidan kutulib, Temur boshchiligida yana mustaqilni qoʻlga kiritish, yirik, mustakil feodal davlatining vujudga kelishi Oʻrta Osiyo, Xurosonda uzilib qolgan madaniy yuksalishining yetuk darajaga erishuvi va milliy madaniyat, milliy tilning yanada yuksalishi bilan yakunlanishiga olib keldi.

XIV asrning Oʻrtalarida Oʻrta Osiyo tuxtovsiz oʻzaro nizoda boʻlgan mayda feodal xoqimliklari, iktisodning tushkunligi, siyosatda kat'iyatsizlik va turli-tumanlik bilan xarakterlanar edi. Shunday sharoitda Amir Temur (1336-1407) xoqimiyati vujudga kelib, ijtimoiy jarayonda tezda kuzga tashlandi va mamlakat xayotida juda katta rol uynadi. Amir Temurning faoliyati 2 davrga boʻlish mumkin: Birinchi davrda Chigatoy ulusining turli amirlari xizmatida boʻlib, soʻng uzi kushin tuplab mamlakatni mugullardan ozod kilish va birlashtirish uchun kurash olib bordi va Movarounnaxr, Xurosonda katta mustakil davlat barpo etdi. Xayotining ikkinchi qismini deyarli umrining oxiriga kadar turli Sharq mamlakatlarini karam etishga qaratilgan uch yillik, besh yillik, yetti yillik xarbiy yurishlarga bagishladi va buning natijasida Eron, Turkiya, Irok, Shimoliy Xindiston kabi qator Sharq mamlakatlarini zabt etib, uziga karatdi va oʻlkan imperiya yaratdi.

Temur uz faoliyatida davlatni mustaxkamlash, uni boshqarishni mukammallashtirish, kurish-kurilish, obodonchilik, sugorish, savdo yullarini kengaytirish ishlariga katta e'tibor berdi. Bevosita uning raxbarligi va tashabbusi bilan yozilgan "Temur tuzuklari" mustaxkam davlat va

qonunchilik hamda davlatni kat'iylik bilan boshqarishni ma'lum qoida tartiblari asosida olib borishga bo'lgan xarakat timsolidir. Unda davlatni boshqarishda, mustaxkamlash va faoliyatini ta'minlashda zarur bo'lgan vazifa va ijrochilar tizimi uz feodal davri uchun namuna shaqlida aniqlab berilgan. Temur uzining Movarounnaxrdagi faoliyatida shaharni obod etish, kurkam binolar, saroyilar, masjidlar, madrasalar kurish ishiga katta e'tibor berdi. Boshqa o'lkalardan xunarmandlar, ustalar, me'morlar, binokorlarni taqlif etib ishlatdi. Elchilik ishlari ham rivoj topdi. Temur davlatining markazi bo'lgan Samarqandning kiyofasi tamoman uzgarib, Sharqning eng guzal shaharlaridan biriga aylandi.

Temuriylar davrida davlat ikkiga ajratilib Movarounnaxr va Xurosonda idora etildi. Samarqand va Xirot ularning markazi bo'lib xizmat qildi. Ayniqsa Temur davlatida Shoxrur, Ulug'bek, Sulton Husayn Boyqaro davlarida madaniyat rivoji uchun keng imkoniyat yaratildi. Ulug'bek va Husayn Boyqaroning uzlari bevosita ilm va she'riyat bilan ham mashg'ul bo'ldilar.

Bu davr - XIV asrning oxiri va XV asrni O'rta Osiyo tarixida so'nggi uyug'onish davri deb aytish mumkin. O'rta Osiyodagi IX-XII asrlardagi ilm-fan, madaniyatning gurgirab yashnashi arablar istilosidan kutulib yerli mustaqil davlatlar vujudga kelishidek ijtimoiy-siyosiy zaminga asoslangan bo'lsa va O'rta Osiy xalqlari tarixida ilk uyug'onish davrini tashkil etgan bo'lsa.

XIV asr oxiri va XV asr mugullar mustamlakachiligidan kutulib yerli yirik mustaqil feodal davlatining shaqlarini va rivoji asosida madaniyatda yana kutarilish va keskin rivoj ruy berdi. Bu kutarilish avval madaniy yutuqlarga, ularni yanada yuksaltirish va zamona ma'naviy talablari asosida yangilash natijasida vujudga keldi. Bu davrda arab tili din tili bo'lib qolsada, uning ta'sir doirasi ancha toraydi. Ilm va she'riyat tili sifatida turkiy til va fors tili asosiy rol uynaydi. Bu davrda islom dini qonun-qoidalari, talablari diniy doira va diniy marosimlarda, madrasa, masjidlarda va boshqa shuningdek davlatchilik xukumat tizimlarida uz kuchini saqlab qolgan bo'lsada, ma'naviyatda, axloq-odob, ilm-fan, san'at, she'riyatda ziyolilar va xunarmandlar faoliyatida tasavvuf va ayniqsa uning O'rta Osiyodagi muhim yo'nalishi bulmish nakshbandiya ta'siri kuchaydi.

Temur va temuriylar davrida nakshbandiya keng tarkalib targib etildi, temuriy zodagonlarning ko'pchiligi, shoir, olim, fozil xunarmand, kosiblar bu ta'limotga ergashdilar. Temuriylar davrida bu ta'limotning nazariyotchisi va shayxi bo'lib Xuja Axror Vali (1404-1490) nom qozondi. Bu davrda turli ilmiy va ilmiy o'qitish muassasalari ham barpo etildi. Temurning ayrim ugil nabiralari uning ishini davom ettirib Samarqandga turli o'lkalardan olim- fozillarni tupladilar, ilmiy jamoa vujudga keldi.

Bu jamoalarda fanning turli sohaları bo'yicha tadkikotlar olib borildi. Samarqandda butun Sharqda mashhur bo'lgan observatoriya yaratilib, yulduzlar va osmon jismlari xarakatini o'rganish bo'yicha tadkikotlar olib borildi. Xattotlik, kitob ko'chirish, musiqa asboblari yaratish, kulolchilik, tibbiyot va tabiblik san'ati, axloqshunoslik rivoj topdi. Tarix ilmi, tarixshunoslik sohasida muhim yutuqlar qo'lga kiritildi.

Ma'naviyatning turli sohaları rivojiga maxsus mablaglar ajratildi, ularning izchil taraqqiyoti diqqat markazda bo'ldi. Bu davr madaniyatining rivojida avvalgi ma'naviy yutuqlarga, qadimgi yunon olimlari Aristotel, Platon, Evklid, Ptolemey, Galen, Gippokrat kabilar ilmiy asarlaridan foydalanish, madaniy merosimiz Xorazmiy, Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, Zamaxshariy kabilarning asarlarini keng o'rganish katta ahamiyatga ega bo'ldi.

Bu davr juda ko'p mashhur davlat arboblari, olimlar, kuruvchilar, san'atkorlar, shoir kabilarni yarata oldiki, ularning ham birisining merosi, ijodi, iste'dodini maxsus va chukur tadkik etish mumkin.

Bu davrda Samarqandda Mir Sayid Jurjoni, Umar Taftazoniy, Abdujabbor Xorazmiy, Mavlono Munshiy, Badriddin Axmad, Jalol Xokiy kabilar turli fanlar sohasida ijod etdilar. Abdurazzoq Samarqandiy, Xofiz Abru, Sharafiddin Ali Yazdiy, Fozix Xavafiy kabi tarixchilar usha davr tarixini yozib koldirdilar. Mirxond va Xondamir kabi tarixshunoslar uz asarlari bilan mashhur bo'ldilar. Bu davrda tibbiyot, riyoziyot, xandasa, jugrofiya, falakiyot, tarix, mantik,

falsafa, axloqshunoslik kabi ilmlar rivoj topdi. Adabiyot va san'at sohasida ham mislsiz yutuqlarga erishildi. Bu davrda Lutfiy, Jomiy, Durbek, Gadoiy, Xofiz Xorazmiy, Sakkokiy kabi shoir-yozuvchilar uz asarlari bilan mashhur bo'ldilar. Musiqa sohasida Abdukodir Nai, Xusayn Udiy, Najmiddin Kavkabi, Shoxkumi Gijjakiy kabilar keng nom qozondilar. Bu davrda yashab ijod etgan Bexzodning rassomlik maktabi butun Sharqqa mashhur bo'ldi. Bu ulug'larning ichida eng ulugi haqida gap borsa albatta birinchi navbatda sarkardalik, davlat arbobi bo'lish, uni boshqarish, konunchilikni urnatishga Amir Temur nomi butun olamga mashhur bo'lganidek tabiiy fanlar - ilm-fan sohasida Mirzo Ulug'bek, she'riyatda Alisher Navoiy bu davr va uz xalqi dovrugini olamga taratdilar va tarixda kelajak avlodlar uchun uchmas iz qoldirdilar.

Temur vafotidan so'ng uning ugli Shoxrux Ulug'bek Movarounnaxrda 1411-1449 yillarda xukmronlik qildi.

Ulug'bek xukmronlik qilgan davrda Movarounnaxr shaharlari, xususan davlat markazi Samarqandda juda katta madaniy uzgarishlar ruy berdi. Samarqand, Buxoro, Gijduvon, Marvda madrasalar, xayriya muassasalari barpo etildi. Bibixonim masjidi, Amir Temur makbarasi, Shoxi Zinda ansambli kurilishlari oxiriga yetkazildi, juda ko'p karvonsaroy, tim, chorsu, hammomlar qurildi. Ulug'bek Samarqandga turli tillardagi ko'p kitoblarnigina emas, turli sohada ish olib boruvchi 100 dan ortiq olimlarni ham olib kelib, ularning ilmiy ishlariga sharoitlar yaratdi. U uz ona turkiy tilidan tashkari arab, fors tillarini yaxshi bilar va turli mamlakatdan kelgan olimlar ishtirokida ilmiy muloxazalar olib borar edi. Ulug'bek yaratgan madrasa, rasadxona, kutubxona, tuplagan olimlar uyushmasining ilm-fan, madaniyat sohasidagi faoliyatini nazarda tutib ularni Ulug'bek akademiyasi deb atamoq mumkin.

Ulug'bek ilm-fanning rivojiga juda katta e'tibor berdi va uzi ham davlatni boshqarish ishlari bilan bir qatorda turli ilmlar, xususan falakkiyot, riyoziyot, tarix fanlari sohasida chukur tadkikotlar olib bordi.

Ulug'bek tibbiyot va musiqa bilan ham yaqindan qiziqqan, she'rlar yozgan. Ulug'bek davrida ko'pgina ilmiy tarixiy asarlar arab va fors tillaridan eski uzbek tiliga tarjima etilgan va turli Sharq tillarida kitoblar to'plashga e'tibor berilgan. Ulug'bek tashkil etgan boy kutubxonada turli fanlarga oid 150 mingdan ortiq jildli kitoblar mavjud bo'lgan.

Lekin Ulug'bekni olim - tadqiqotchi sifatida butun jahonga mashhur etgan ishi - bu uzoq yillar davomida yulduzlar olamini kuzatish natijasida yaratgan astronomik jadvali "Ziji Kuragoniy" yoki "Ziji Ulug'bek" deb nomlanuvchi katta xajmli asaridir.

Bu yil Ulug'bek tavalludining 600 yillik to'yini o'tkazish va 1994 yilni Ulug'bek yili deb e'lon etish - bu xalqimizning madaniyati oldida turgan o'lgan vazifasidir.

Prezidentimiz Islom Karimovning bu boradagi farmoni ziyolilarimiz, ilmiy jamoatchiligimiz oldida buyuk vatandoshimiz, xalqimizni jahonga mashhur etgan Mirzo Ulug'bek yubileyini oliy darajada tashkil etish ishiga yangi mas'uliyatlar quyadi. Buni biz xalqimiz, tariximiz, o'tmish ajdodlarimiz oldida qarzimiz, yosh kelajak avlodni yangi mustaqil davlatimiz - O'zbekistonning taraqqiyotini, buyuk davlatlar qatoridan o'rin olishini ta'minlay oladigan qilib yetishtirishdagi muhim burchimiz deb bilishimiz zarur.

* * *

Har bir xalq tarixida shunday davrlar bo'ladiki, bu davrlar xalqning iste'dodi, ma'naviy darajasi, aqliy qobiliyatini butun jahon miqyosiga olib chiqadi hamda jahon madaniyati rivojiga ajralmas hissa bo'lib kiradi. Bunday davrlarning qimmatini nihoyatda muhim tarixiy voqealarning ruy berishi hamda buyuk arboblari, talant egalari, mutafakkirlarning faoliyati va qoldirgan merosi bilan o'lchanadi.

Bu xalqimiz tarixida bunday davr uyg'onish davri va uning madaniyati bo'ldi.

MUNDARIJA

Soʻz boshi	3
Uygʻonish davri madaniyati va Oʻrta Osiyo.....	4
Fors-tojik tilidagi adabiyot	14
Turkiy tildagi adabiyot.....	19
Iloxiyot, dinshunoslik, islom dini	23
Fan, tabiatshunoslik, falsafa va gumanitar ilmlar.....	26
Tasavvuf.....	38
Xulosa.....	47

D. B. YU I D A S H Y E V A

OLTIN MEROS

Tex.muxarrir: YE.G.Soy, E.P.Uzokov.

Bosishga ruxsat etildi 2004 yil 10.09.

Qogʻoz bichimi A3.

Shartli betlar tabogi 2,0. 200 nusxada. Maketlash "Sigma" MJCH tomonidan
amalga oshirilgan. Buyurtma №050

703004, Samarqand shaxar
Y.Oxunboboyev kuchasi, 93 uy.